



Farrux ABDUSAMADOV,

Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: abdusamadov@mail.ru

Tarix fanlari nomzodi, dotsent S.Valiyev taqrizi asosida

THE PROCESS OF FORMING THE ORGANIZATIONAL AND LEGAL BASIS OF HOTELS

Annotation

The article analyzes the tendency of formation processes of the organizational and legal frameworks of the tourism industry, especially the hotel service, in the years of independence in Uzbekistan.

Key words: hotel, tourism, service, economy, entrepreneurship, forms of ownership, legal basis.

ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОЙ БАЗЫ ГОСТИНИЦ

Аннотация

В статье анализируются тенденции формирования организационно-правовой базы туристической отрасли, особенно гостиничного сервиса, в годы независимости Узбекистана.

Ключевые слова: гостиница, туризм, сервис, экономика, предпринимательство, формы собственности, правовая основа.

МЕХМОНХОНАЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ХУУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ ЖАРЯНОИ

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarda turizm sohasi xususan mehmonxona xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllanishi jarayonlari tendensiysi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mehmonxona, turizm, xizmat ko'rsatish, iqtisodiyot, tadbirkorlik, mulkchilik shakllari, huquqiy asos.

Kirish. Mehmonxona iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish tarmog'iga kiradi. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyotning erkinlashuvni mehmonxonalarini ham bosqichma-bosqich xususiylashtirishga asos bo'ldi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan mehmonxonalar tadbirkorlar boshqa-ruviga o'tdi. O'zbekiston Respublikasi poytaxti – Toshkent shahri, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'ona kabi yirik shaharlar markazlarida xususiy mehmonxonalarni ochishga bo'lgan harakatlar sezildi. Nafaqat mazkur hududlar, balki Andijon, Namangan, Toshkent viloyati kabi aholisi ko'p bo'lgan viloyatlar, Qoraqlapg'iston Respublikasi hamda boshqa viloyatlar markazlarida ham mehmonxonalar soni oshib bordi.

Bozor sharoitida mulkchilik shakllarining tan olinishi va davlat tomonidan kafolatlanishi mehmonxonaga o'xshash xizmat ko'rsatish tarmog'iga xususiy tadbirkorlarni jalg etishning huquqiy zaminini yaratdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida bunday kafolat quyidagicha ifodalandi: "Bozor munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda utilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin" [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Teng huquqli tashkiliy-huquqiy shart-sharoit raqobat muhitini yuzaga keltirdi. Xizmat ko'rsatishdan kelgan daromadning oshib borishi mazkur sohadagi infratuzilmani zamonga mos rivojlantirishga yo'l ochib berdi. Vaholanki, mustaqillik yillarda O'zbekiston aholisi 20 mlndan 37 mlnga o'sgani hisobidan, ichki atrofdan foydalanishda ekologiya, fuqarolarning huquqlari, turli tashkilotlarning manfaatlari hisobga olinadi. O'z navbatida belgilangan tartibda kommunal to'lovlar va soliqlarni o'z vaqtida to'lash, mavjud qonunchilikka rioya qilish bilan davlat oldidagi majburiyat ham ta'minlanishi zarur.

largal talab oshib bordi. Ichki turizm va sayyohlik aholining turmush sharoitlaridan kelib chiqib rivojlandi. Shuning uchun mamlakat fuqarolarining talablariga mos bo'lgan mehmonxonalarini barpo etish uchun ham xususiy mulk har jihatdan qo'llab-quvvatlanishi zarur edi.

Ta'kidlash lozimki, tadbirkor uzoq yillik kafolatni talab qiladi. Chunki yirik mablag' evaziga barpo etiladigan mulkni uzoq vaqt tasarruf qilishga ishonch bo'lmasa, bunga investitsiya kiritish ehtimoli pasayib ketadi. Ana shunday ehtiyoj tufayli davlat imkon darajada mulkdorni o'ziga tegishli mulkidan erkin foydalanish kafolatini mustahkamlab bordi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasida "Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdor foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarni buzmasligi shart" [2] degan qoida mustahkamlab qo'yildi.

Tadbirkor o'z mulkini tasarruf etishda ekologiyaga ziyon yetkazmasligi, fuqarolar, tashkilotlar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarni buzmasligi kerak. Huquq va erkinliklar taqdirm etilishi bilan birga undan foydalanishda boshqalarning huquq va erkinliklari cheklanmasligi belgilab qo'yilmoqda. Mehmonxona va uning atrofdan foydalanishda ekologiya, fuqarolarning huquqlari, turli tashkilotlarning manfaatlari hisobga olinadi. O'z navbatida belgilangan tartibda kommunal to'lovlar va soliqlarni o'z vaqtida to'lash, mavjud qonunchilikka rioya qilish bilan davlat oldidagi majburiyat ham ta'minlanishi zarur.

Shunday qilib, mehmonxona faoliyatining huquqiy asoslarni yaratish mustaqillikning ilk yillardan boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldag'i "O'zbektuzism" milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida"gi PF-447-son farmoni, O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 20 oktobrdagi “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida”gi 484-sen qarori qabul qilinib, turizm, shu jumladan mehmonxonalar faoliyatini tartibga solib turadigan tashkiliy-huquqiy mexanizm yaratildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagagi “O'zbekturizm” milliy kompaniyasini tashkil qilish to'g'risida”gi PF-447-sen farmoni bilan O'zbekistonda Kasaba uyushmlari Federatsiyasi Kengashi turizm va ekskursiyalar Respublika Kengashining, “Sputnik” Xalqaro yoshlar turizmi Byurosining “Intur-Toj” qo'shma korxonasining, respublika xo'jalik hisobidagi “Sayyohintur” birlashmasining sobiq SSSR Davlat chet el turizmi komiteti korxonalarining shular negizida “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi. “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi O'zbekiston hududida turizm sohasidagi yagona siyosat ishlab chiqilib, amalga oshirilishini ta'minlaydigan muvofiqlashtiruvchi bosh organ deb e'lon qilindi.

“O'zbekturizm” faoliyatining bosh vazifalari va yo'naliishlari etib quyidagilar belgilandi:

turizm sohasida respublikaning yagona siyosatini amalga oshirish;

turizmning xo'jalik tarmoqlari majmuuni rivojlantirish;

turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarni hamda shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

turistik markazlaridan oqilona foydalanish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish yo'li bilan zamонави turistik komplekslarni barpo etish;

ekskursiyalar uchun tarixiy me'morhilik inshootlarini ta'mirlash;

yirik ajnabi firmalar va kompaniyalar bilan birga qo'shma turistik xizmatlar va korxonalarini tashkil etish;

jahon bozorida talab qilinayotgan yangi turistik marshrutlar va xizmatlarning turlarini ta'tbiq qilish;

turizm tarmoqlari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

O'zbekiston hududida ish yurituvchi barcha mulkchilik shaklidagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga turizm sohasida shug'ullanish huquqini beradigan sertifikatlarni topshirish hamda ular faoliyatini nazorat qilish;

tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

o'zining ishlab chiqarish va tijorat tuzilmasini tashkil qilish;

chet ellardagi o'z vakolatxonalarini va byurolari orqali respublikaning turizm sohasidagi g'oyat katta imkoniyatlarini reklama qilish” [3].

Turizm sohasida yagona muvofiqlashtiruvchi organning qaytdan tashkil etilishi respublikaning turizm salohiyatini oshirish borasidagi islohotlari uchun muhim qadam bo'ldi. Chunki mustaqillikning ilk yillarda davlat hokimiyatidagi barcha muassasalar yangicha formatda tashkil etildi. Bu paytda bozor munosabatlariga o'tilayotgan, davlat o'z tasarrufidagi mulklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirayotgan davrlar edi. Biz aytmoqchimizki, boshqa sohalar kabi turizm, shu jumladan uning ajralmas qismi bo'lgan mehmonxonalar ham bozor talablariga moslashishga majbur bo'ldi. Sohani tartibga solib turadigan alohida qonunchilik tizimini shakllantirish ham mazkur ehtiyojlardan kelib chiqdi.

Xizmat ko'rsatish sohalaridagi huquqiy munosabatlarni tartibga solib turishga xizmat qiladigan qonunchilikdan biri turizm haqidagi qonun edi. Mustaqillik yillarda ilk bor 1999 yil 20 avgustda “Turizm to'g'risida”gi 830-I-sen O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Turistik faoliyatning barcha jihatlari qamrab olingen ushbu qonun 2019 yil 20 oktobrda o'z kuchini yo'qotdi. Lekin 20 yil

davomida turizm faoliyatini, shu jumladan mehmonxona faoliyatini tartibga solib turish uchun asos qonun rolini bajardi.

Qonunda “turistik industriya” (turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turli sub'ektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumi ovqatlanish, transport korxonalar, madaniyat, sport muassasalarini va boshqalar) majmui), tur (muayyan yo'naliish bo'yicha turistik xizmatlar majmui (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlanish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlari) bilan ta'minlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat), turistik xizmatlar (turistik faoliyat sub'ektlarining joylashtirish, ovqatlanish, transport, axborot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek turistlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlari) kabi tushunchalar aniqlashtirildi [4].

Xuddi shu davrga kelib o'tish davrining qiyin davrlari ortda oldi. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mavjud bo'lsa-da, taqlikali va iste'mol tovarlari tanqisligi birmuncha barham topdi. Bundan tashqari, O'zbekistonning tarixiy obidalari va muqaddas ziyoratgohlari bilan tanishish uchun xorijiy sayyohlar oqimi faollasha boshladi. Chunki mustaqil davlat sifatida xalqaro miqyosda o'z nufuzini topa boshladi. Shuning uchun turizm salohiyatini oshirish bo'yicha alohida dastur qabul qilindi. Jumladan, 1999 yil 15 aprelda qabul qilingan PF-2286-tonli “2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston turizmi rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida mulkchilik shaklidan qat'i nazar, sayyohlik tashkilotlari chetdan keltiriladigan texnologiya va mehmonxona uskunalarini, sayyoqlik maqsadlariga mo'ljallangan transport vositalari uchun bojxona poshlinalari to'lashdan 3 yil muddatga ozod qilindi [5]. Ushbu dasturiy hujjat 2020 yil 28 sentabrgacha amalda bo'ldi.

Haqiqatda ham 1999 yil turizmga e'tibor berilishining yangi davrini boshlab berdi. Mazkur yildan boshlab turizm sohasi bo'yicha o'rta-maxsus va oliv ma'lumotli kadrlarni tayyorlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 2 iyuldagagi “O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 324-sen qarori turizm bo'yicha zamон талаблари darajasida mutaxassis kadrlar tayyorlaydigan maxsus ta'lim muassasalarini yaratish hamda shu asosda mamlakatimizda turizmning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi “O'zbekturizm” milliy kompaniyasi bilan birlgilikda 1999 yil 1 avgustga qadar Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tarkibida xalqaro turizm fakultetini, Toshkent shahar mehmonxona xo'jaligi va turizm litseyi negizida Toshkent turizm kasb-hunar kollejini tashkil etish nazarda tutildi. Toshkent madaniyat instituti bakalaviyatiga turizm sohasi uchun rejalashtirilgan 80 ta qabul kvotasi (40 ta davlat grantlari va 40 ta to'lov-kontrakt asosida) Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga o'tkazildi. Toshkent shahridagi yirik oliy ta'lim muassasasida turizm bo'yicha kadrlar tayyorlashni takomillashtirishi sohani sifatlari va malakali kadrlar bilan ta'minlashga xizmat qildi.

Qaror doirasida bir qancha shaharlarda o'rta maxsus kab-hunar kollejlarini barpo etish ham nazarda tutildi. Jumladan, 2000-2005 yillar mobaynida, zarur pedagogik kadrlar tayyorlanishini hisobga olgan holda, Samarqand, Buxoro, Xiva, Farg'on, Termiz va Shahrisabz shaharlarda turizmga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlarini tashkil etish rejasini 1999 yilning 1 sentabriga qadar tuzish va bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutildi. O'rta

maxsus kasb-hunar kollejlarining barpo etilishi har jihatdan qulay hisoblangan. Chunki turizm sohasiga tezkor va moslashuvchan kadrlar tayyorlashda kasb-hunar kollejlarining imkoniyatlari yetarli edi.

Shu bilan birqalikda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining xalqaro turizm fakultetini va Toshkent turizm kasb-hunar kollejini malakali pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ta'lif sohasidagi xalqaro aloqalarga tayangan holda, mamlakatimizga xorijdan yuqori malakali pedagoglarni mutazam ravishda taklif etish va ularni o'qish jarayoniga jalb qilishni amalga oshirish ko'rsatib o'tildi.

Tahsil va natijalar. Faqat tashkiliy-institutsional o'zgarishlar emas, balki normativ-huquqiy hujjat bilan turizm sohasidagi kadrlar tayyorlashning mazmuniga ham talablar va vazifalar ishlab chiqildi. Jumladan, bu boroda 1999/2000 o'quv yili mobaynida, turizm bo'yicha chet eldag'i nufuzli o'quv markazlarida qo'llanilayotgan darsliklar mazmunini o'rganib chiqish, uni o'zbek xalqining boy an'ana va qadriyatli bilan uyg'unlashtirgan holda, respublikada turizm yo'nalishidagi ta'lif muassasalarini uchun zamonaviy darsliklar va o'quv adabiyotlarini yaratish hamda nashr etishni ta'minlash, turizm bo'yicha tashkil etilayotgan ta'lif muassasalarini zarur asbob-uskuna va mebellar, zamonaviy kompyuter texnikasi va chet tillarni mukammal o'qitish vositalari bilan jihozlash, xalqaro va xorijiy turistik tashkilotlar hamda yetakchi o'quv-ilmiy markazlari bilan samarali hamkorlik qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, Butunjahon turistik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkaziladigan turistik dasturlarda ishtirot etishda amaliy yordam berish va faol qatnashish vazifalarini keltirish mumkin.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi ta'lif muassasalarining barchasi davlat tasarrufida ekanligidan hamda malakali kadrlarga bo'lgan talab oshib borayotganidan kelib chiqib, "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi barcha ta'lif muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun doimiy hokimiy ekanligi nazarda tutildi [6].

So'nggi yillarda turizmga e'tibor yangi bosqchiga ko'tarildi. Turizmni rivojlantirish sohasida tashkiliy-tuzilmaviy o'zgarishlar qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni bilan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi [7].

Shuningdek, "gidlar (ekskursiya yetakchilar), kuzatib boruvchi-yo'rqiqlarning xizmatlari jismoniy shaxslar yoki yuridik shaxslarning xodimlari tomonidan faqat ular olyi yoki o'rta maxsus kasb-hunar ta'lif to'g'risidagi diplom yoxud gidlar (ekskursiya yetakchilar) yo'nalishi bo'yicha davlat namunasidagi qayta tayyorlash to'g'risidagi guvohnoma yoki O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan beriladigan malaka sertifikati olgandan keyin amalga oshirilishi mumkin"ligi qat'iy ko'rsatib o'tildi.

Sohani rivojlantirish maqsadida turizm sohasida xalqaro darajadagi kadrlar tayyorlash ko'zda tutildi. Shu vaqtga qadar turizm yo'nalishida olyi ma'lumotli kadrlar muayyan olyi ta'lif muassasalarini tarkibida tayyorlangan. Alovida ixtisoslashgan olyi ta'lif muassasasi bo'lmagan. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 iyundagi "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" PQ-3815-son qarori bilan Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti ochildi.

Bunday ko'zlangan maqsad "xalqaro turizm sohasida professional kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari va ijodiy ishlarni olib borish bo'yicha respublikaning tashabbuslarini amaliy ro'yoga chiqarish, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning tarixiy va madaniy-gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish" hisoblanadi [8].

Turizm sohasi sport va madaniy soha bilan uzviylikka ega. Jumladan, sport turizm bilan birga rivojlangan. Turizmni rivojlantirishdan maqsadlardan biri ham insonlarning munosib dam olishi orqali sog'lom turmush-tarzini rivojlantirishdir. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6199-son farmoni [9] hamda "Turizm va sport vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2021 yil 6 apreldagi PQ-5054-son qarori [10] bilan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi hamda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida Turizm va sport vazirligi tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, turizm va mehmonxona faoliyatini davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib kelgan. Yuqoridagilardan kelib O'zbekistonda mehmonxonalar faoliyatini huquqiy asoslarini yaratilishi va uning mazkur xizmat ko'rsatish turining rivojlanish jarayonini uchga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich – 1991-1998 yillar. Bu yillarda xususiy mulkni kafolatlagan va tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asosiga aylangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilindi. Turizm sohasini xususiylashtirishning dastlabki bosqichi amalga oshirildi. Turizm faoliyatini muvofiqlashtiradigan "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashkil etildi.

Ikkinci bosqich – 1999-2015 yillar. Ushbu bosqichda turizmni rivojlantirish kompleks ravishda amalga oshirildi. "Turizm to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Turizm sohasi erkinlashtirildi, yangi avlod kadrlar tayyorlash tizimiga o'tildi, zamon talablariga mos mehmonxonalar barpo etildi. Turizm va mehmonxona xo'jaligi xizmat ko'rsatishning alohida tarmog'i sifatida rivojlandi.

Uchinchi bosqich – 2016 yildan keyingi yillar. Mehmonxonalar uchun davlat imtiyozlari faol tatbiq qilindi. Turizm bo'yicha kadrlar tayyorlovchi alohida xalqaro universitet tashkil etildi. Mehmonxonalar faoliyatida miqdor va sifat o'zgarishlari amalga oshirildi. Davlat tasarrufida bo'lgan yirik mehmonxonalar xususiylashtirildi. Uy mehmonxonalar va kempinglarga o'xshash moslashuvchan tuzilmalar yaratildi.

ADABIYOTLAR

- “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни. 2023 йил 1 май, ЎРҚ-837-сон // <https://lex.uz/acts/6449033>
- “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни. 2023 йил 1 май, ЎРҚ-837-сон // <https://lex.uz/acts/6449033>
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 27 يولдаги “Ўзбектуризм” миллий компаниясини ташкил килиши тўғрисида”ги ПФ-447-сон фармони (хужжат 12.12.2016 йилда ўз кучини йўқотган) // <https://lex.uz/docs/223878>
- “Туризм тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Конуни, 1999 йил 20 август, 830-I-сон (хужжат 20.10.2019 йилда кучини йўқотган) // <https://lex.uz/docs/75375>

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1999 йил 15 апрелдаги ПФ-2286-сонли “2005 йилгача бўлган даврда Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш давлат дастури тўғрисида”ги фармони // <https://lex.uz/docs/213701>
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 2 июль 324-сон “Ўзбекистонда туризм соҳаси учун кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори // <https://lex.uz/acts/594014>
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли фармони // <https://lex.uz/docs/3077025>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ипак йўли” туризм халқаро университетини ташкил этиш тўғрисида” 28.06.2018 йилдаги ПҚ-3815-сон қарори // <https://lex.uz/docs/3799075>
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм, спорт ва маданий мерос соҳаларида давлат бошқаруви тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2021 йил 6 апрелдаги ПФ-6199-сон фармони // <https://lex.uz/docs/5356705>
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Туризм ва спорт вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” 2021 йил 6 апрелдаги ПҚ-5054-сон қарори // <https://lex.uz/docs/5356603>



Gulmira AZAMATOVA,
Jizzax politexnika instituti o'qituvchisi
E-mail: g.azamatova1987@bk.ru

O'zMU professori, t.f.d X.Yunusova taqrizi asosida

REFORMS CONCERNING LABOR MIGRATION OF WOMEN IN UZBEKISTAN'S NEW DEVELOPMENT STAGE

Annotation

This article describes labor migration, which has become important in the current globalization process, and the characteristics of women's labor migration in New Uzbekistan. At the new stage of Uzbekistan's development, it is analyzed that the attitude towards the citizens working abroad has fundamentally changed, that a new system of studying and solving the problems and needs of labor migrants has been introduced.

Key words: migration, labor migration, women, New Uzbekistan, population employment, external migration.

РЕФОРМЫ В ОБЛАСТИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ ЖЕНЩИН НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье описывается трудовая миграция, ставшая важной в современном процессе глобализации, и особенности женской трудовой миграции в Новом Узбекистане. На новом этапе развития Узбекистана проанализировано, что радикально изменилось отношение к гражданам, работающим за рубежом, внедрена новая система изучения и решения проблем и потребностей трудовых мигрантов.

Ключевые слова: миграция, трудовая миграция, женщины, Новый Узбекистан, занятость населения, внешняя миграция.

О'ZBEKİSTONNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA XOTIN-QIZLAR MEHNAT MIGRATSİYASI BORASIDA OLİB BORİLAYOTGAN ISЛОHOTLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi globalashuv jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan mehnat migratsiyasi va Yangi O'zbekistonda xotin-qizlar mehnat migratsiyasi xususiyatlari yoritilgan. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarganligi, mehnat migrantlarining muammo va ehtiyojlarini o'rghanish, hal qilishning yangi tizimi joriy qilinganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat migratsiyasi, xotin-qizlar, Yangi O'zbekiston, aholi bandligi, tashqi migratsiya.

Kirish. Dunyo davlatlaridagi integratsiya jarayonlari, mintaqalararo notinchlik, ekologik ofat kabi bir qator muammolar tufayli, bugungi kunga kelib ham dunyo davlatlari bo'yicha migratsiya oqimi kuchayib bormoqda. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Unda aholining mehnatga layoqatli qatlami moddiy ehtiyoj tufayli bir davlatdan boshqasiga doimiy yoki vaqtinchalik ish topish maqsadida ko'chib boradi. Butun dunyoda mehnat migrantlarining soni ortib borayotganligining asosiy sabablari bozor iqtisodiyoti sharoitida insонning hayot kechirishi uchun iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ham migratsiya jarayoni, jumladan, xotin-qizlar mehnat migratsiyasining o'ziga xos ijobjiy va salbiy tomonlari saqlanib qoldi. Muammo va qiyinchiliklar bilan birligida turli iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda qator o'zgarishlar yuzaga keldi. Mehnat migrantlarining asosiy qismi 80,9 foizga teng bo'ldi. Ayol migrantlar esa 19,1 foizga teng bo'lib, 2016-yilga kelib 3,7 ga ortdi[1].

2016-yil oxirida O'zbekistonda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar bilan hukumat mamlakatdagi migratsiya siyosatini har taraflama qo'llab-quvvatlashni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgardi, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rghanish, hal qilishning yangi tizimi

joriy qilindi. Chunki migratsiya oqimini to'xtatib bo'lmasligi bois so'nggi yillarda xorijda mehnat faoliyatini bilan shug'ullanayotgan mehnat migrantlarining, xususan, xotin-qizlarning qonuniy asosda mehnat qilish, ta'lim olish, tibbiy xizmat va ijtimoiy sug'urtadan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun mamlakat mavjud imkoniyatlaridan foydalandi.

Tahlil va natijalar. 2017-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda ish topish ilinjida 1 mln. 630 mingdan ortiq fuqarolar mamlakatni tark etdi. Ulardan 1 millionga yaqini, ya'ni 944 ming 328 nafari Rossiya Federatsiyasiga, 626 ming 791 nafari Qozog'istonga, qolganlari Turkiya, Janubiy Koreya va boshqa davlatlarga chiqib ketdi[3].

Bu o'z navbatida, nafaqat fuqarolarning o'zini, balki O'zbekiston hukumatini ham yanada qat'iy qadam bilan chora-tadbirlar ko'rishga, migrantlarni, ayniqsa, eng avvalo aylarni himoya qilishga, real salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlar ishlab chiqilishini talab etdi.

Migratsiya jarayonida xotin-qizlarning xatti-harakatiga baho berishda ularning tarkibi, yoshi, jinsi, ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarligiga bog'liqligini o'rghanish ham muhim masala hisoblandi. Bunda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash ularni ijtimoiy himoyalash tizimini yanada mustahkam-lashning asosiy omillaridan biri bo'ldi. Respublikada amalga oshirayotgan islohotlarning samarasini yanada oshirish, har taraflama davlat va jamiyatning tez rivojlanishiga shart-sharoitlar yaratish hamda hayotning barcha sohalarini

liberallashtirishda muhim yo'naliishlarni bajarish maqsadida ishlab chiqildi va amalga oshirildi. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish Harakatlar strategiyasining bir necha muhim masalalari bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, shuningdek ularning ichki va tashqi mehnat migratsiyadagi ishtirokini tartibga solish muhim yo'naliish qilib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-son qarori[4] bilan tasdiqlangan "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlari dasturi"da Xalqaro Mehnat tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-son Konvensiyasi[5] ni qabul qilish masalasini o'rganilib chiqishi belgilandi. Ushbu Konvensiya mehnat migrantlarining mehnat faoliyati, ularning mol-mulkni hamda oila a'zolari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni qamrab olgan.

2018-yilda xotin-qizlar o'rtasida noqonuniy mehnat migratsiyasining salbiy oqibatlarini oldini olish, noqonuniy migratsiya jabriddiyalarini reabilitatsiya qilish, ijtimoiy hayotga moslashtirish, jamiyatda o'z o'mini topishiga ko'maklashish, ish bilan ta'minlash, jamoatchilik ishlariga faol jalb etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlar qo'mitasi va "Mahalla" xayriya jamoat fondi, tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan hamkorlik rejasini qabul qilindi, barcha viloyatlarda ishchi guruhlari tashkil etildi. Xususan, 2018-yilda Qoraqalpog'istonda 20 mingga yaqin ishsiz ayol aniqlangan va ulardan 18 ming 184 nafar ayollar ish bilan ta'minlandi[6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldag'i "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-son Qarori[7] ijrosi O'zbekiston Respublikasi tashqi mehnat migratsiya faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qildi.

2018-yil 16-oktabrdagi "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni[8] mamlakatda xususiy bandlik agentliklarining faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soldi. Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya va Birlashgan Arab Amirligi o'rtasida mehnat migratsiyasi bo'yicha hukumatlararo bitimlar tuzildi, chet elda ishlayotgan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida alohida jamg'arma tashkil etildi.

2018-yil 12-dekabrda O'zbekistonda mehnat migrantlari ijtimoiy manfaatlarining muhofaza qilish maqsadida Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasi ratifikatsiya qilindi. Shu asnoda, 2019-yil O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Migratsiya Tashkiloti o'rtasida hamkorlikni takomillashtirish chora-tadbirlari rejasini ishlab chiqildi. Bu esa O'zbekistonni Xalqaro Migratsiya Tashkilotining 173 ta a'zosi va 8 ta kuzatuvchi davlatlari safiga kirishini ta'minladi. 2020-yil 15-sentabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son Prezident qarori[9] bo'yicha chet elda mehnat qilayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, migrantlarning huquqi, qonuniy manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi, mehnat migrantlarining hayoti va sog'lig'ini sug'ortalash, ularning oila a'zolari uchun ipoteka kreditlarini ajratish amaliyoti joriy qilindi. Xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish uchun o'ziga xos tizim joriy qilindi. Shu bilan birga, xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash

mexanizmlarini takomillashtirish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarning reintegratsiyasini ta'minlash, ularning tadbirdorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratishda nazarda tutilgan choratadbirlar qabul qilish talab etildi[10]. Shunga muvofiq, mehnat migrantlarini xorija ketishidan oldin tayyorlash, kasbga, tilga o'qitish, ularga munosib ish o'rni topib berish, xorija ketganidan keyin ularni moddiy qo'llab-quvvatlash, qaytib kelgach esa yashab turgan joylarida bandligini ta'minlash, tadbirdorlik tashabbuslarini rivojlantrish va rag'batlantirish kabi bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqsad xorijda ishlayotgan fuqarolar mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga moddiy va boshqa yordamlarni ko'rsatishdan iborat bo'ldi.

Migratsiya faqat ishchi kuchi migratsiyasidan iborat emas. Qochoqlar, boshpana so'rovchilar va surgun qilinganlar migratsiya oqimining bir qismi hisoblanadi. Mehnatkash migrantlar, qochoqlar, siyosiy boshpana so'raganlar kabi boshqa toifaldan farq qilgan holda, irqi, dini, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruhga mansubligi tufayli ta'qib ostida bo'lmaydigan hamda o'z mamlakatidagiga ko'ra ko'proq haq olish yoki umuman haq olish maqsadida o'zga mamlakatda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxs mehnatkash-migrant hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining yil sayin o'sib borishi xotin-qizlar bandligini ta'minlash borasida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, mehnat resurslarining tashqi migratsiyasini kuchaytirdi. 2020-yilda turli maqsadda uchun chet elga ketayotgan O'zbekistonliklarning 58% (8 mln. kishi)ni esa erkaklar, 42% (5,8 mln. kishi)ni ayollar tashkil etdi[11]. Oxirgi 5 yil ichida ish topish iljinidagi mehnat migratsiyasining geografiyasini o'zgardi, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Isroil, Birlashgan Arab Amirligi va Qozog'istoniga ishchilar oqimi tobora o'sib borayotgani kuzatildi[12]. 2021-yilda Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Agentligining qo'shimcha 24 ta vakolatxonasi ta'sis etildi. Jami 94 mingga yaqin xorijda ishlash istagida bo'lgan fuqarolar "Ishga marhamat" monomarkazi, kasb-hunarga o'qitish markazlari va qisqa muddatli kurslarda o'qitildi. 31 ta xorijiy davlatning 359 ta ish beruvchisi va kadrlar agentligi bilan tuzilgan shartnomalar asosida 135 ming 504 fuqaro xorijga ishlashga yuborildi[13].

2021-yilda 502 ming fuqaro xorijdan qaytdi. Ularning 202 ming nafari ayollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yil yakuniga kelib 2,5 ming nafar ayol "Tadbirkor migrant" loyihasi doirasida o'qitildi, hududlarda ular bo'yicha monitoring o'tkazib borildi. Shu 2,5 ming ayoldan 102 nafari tadbirkorlikni boshlab yangi ish o'rnlari yaratildi[14]. 2021-yilning 6 oy mobaynida 192,2 ming ishsiz xotin-qizlarga bandlik xizmatlari ko'rsatildi. To'rt oy davomida 8,3 ming ehtiyojmand xotin-qizlarning ishga joylashishiga ko'maklashildi. 41,2 ming nafar ish bilan ta'minlanmagan xotin-qizlar haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etilgan va ularning maoshi uchun 35,2 milliard so'm mablag' yo'naltirildi[15].

Xulosa va takliflar. Xotin-qizlar o'rtasida ichki migratsiyada ishsizlik muammosining ijtimoiy salbiy oqibatlaridan biri mardikorlik, ya'ni bir martalik yollanma mehnat faoliyatida kuzatilib, tahvil etilganda malaka darajasining past ekanligi yoki asosan umumiyo o'rta ma'lumotlilik, biror kasb-hunarga ega bo'lmaslik, ishsizlik, turmushidan ajralgani va boquvchisining yo'qligi, turar-joyga ega emasligi, sha'riy nikohlar, er-xotin munosabatlaridagi nosog'lom ma'naviy muhit kabi muammolar bunga sabab bo'layotganligi aniqlandi. Jahonda taraqqiy etayotgan davlatlarning aksariyatida mehnat migrantlari kichik dehqon xo'jaliklarida vaqtinchalik, ish haqi yuqori bo'lmagan past

malakali mehnat faoliyatini olib borish bilan band bo'lib qolishlari davom etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Трудовая миграция в СНГ: социальные и экономические эффекты. /Отв. ред. Зайончковская Ж.А.- М.: ИНП РАН, 2003.
2. Mehnat migratsiyasi tizimidagi vazifalarning amaliy yechimi // Xalq so'zi. 2018- yil 7-iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori.
4. "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-sonli Konvensiyasi.
5. O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi joriy arxiv. 2018-yil ma'lumotlari.
6. Yarim million o'zbek ayoli xorijda ishlayapti - O'zbekistonda ularga ish topib berish mexanizmi bormi? <https://kun.uz/news/2022/04/14/yarim-million-ozbek-ayoli-xorijda-ishlayapti-ozbekistonda-ularga-ish-topib-berish-mexanizmi-bormi>? Murojaat sanasi: 5-iyun 2022-yil.
7. <https://review.uz/uz/post/mehnat-migraciysi-va-uning-salbiy-oqibatlarini-bartaraft-etish>. Murojaat sanasi: 28-dekabr 2020-yil.
8. <https://lex.uz/uz/docs/-4997972>.
9. Abduramanov X.X. Oilaning demografik rivojlanish tendensiyalarini baholash. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, (№ 00038) noyabr-dekabr, 2018-yil.11-b. www.iqtisodiyot.uz
10. Ishonxodjayev S.A. Mehnatkash-migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy masalalari. Yuridik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010. – B.27.
11. Qaytish migratsiyasi – xalqaro yondashuvlar va markaziy Osiyoning o'ziga xos xususiyatlari // © 2020 International Organization for Migration (IOM) – B.102.
12. Mehnat migratsiyasi va tendensiyalar // <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/graphics/4423>. Murojaat sanasi: 11-aprel 2021-yil.
13. <https://yuz.uz/news/senat-qomitasi-bandlik-va-mehnat-munosabatlari-vazirligi-huzuridagi-tashqi-mehnat-migratsiyasi-agentligining-axborotini-eshitdi>. Murojaat sanasi: 17-yanvar 2023-yil.
14. Ayollar bandligini oshirish yo'lida // Xalq so'zi, 2021-yil 1-iyun, №114 (7894). – B.3.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 12-avgust kuni "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorija uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 725-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3903307>.



Umidjon BAQOYEV,

Buxoro davlat universiteti magistranti

E-mail: umidjonbaqoyev7@gmail.com

PhD, professor A.Zamonov taqrizi asosida

ASHTARXONIYLAR SULOLASI VA SAFAVIYLAR DAVLATI HARBIY- SIYOSIY ALOQALARI TARIXIDAN

Annotatsiya

Mazkur maqolada Ashtarkoniylar sulolasi va Safaviylar davlati siyosiy aloqalari manbalar va ilmiy adabiyotlar orqali tahlil qilingan. Buxoro xoni shayboniy Abdullaxon II harakatlari natijasida turilgan Xuroson Abdulmo'minxon vafotidan so'ng, Eronda hukmronlik qilayotgan Safaviylar sulolasi ta'siriga tushib qolgan edi. Safaviylar ushbu hududlar bilan cheklanib qolmay, Balx hatto Buxoroni ham o'zlariga qaram qilish yo'llarini qidirganlar. Maqolada Eron-Buxoro o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, Xuroson bosib olingandan so'ng Balx uchun kurash kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Balx, Hirot, shayboniy sultonlar, ashtarkoniylar, safaviylar, shoh, xon, amir.

ИЗ ИСТОРИИ ВОЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ И ГОСУДАРСТВА СЕФАВИДОВ

Аннотация

В данной статье на основе источников и научной литературы анализируются политические отношения между династией Аштарханидов и государством Сефевидов. После смерти бухарского хана Шейбани Абдулла-хана II Герат и Хорасан в целом попали под влияние правящей Ираном династии Сефевидов. Сефевиды не ограничивались этими регионами и искали пути подчинить себе Балх и даже Бухару. В статье рассматриваются такие вопросы, как взаимоотношения Ирана и Бухары, борьба за Балх после завоевания Хорасана.

Ключевые слова: Балх, Герат, Шайбанитские султаны, Аштарханиды, Сефевиды, король, хан, эмир.

FROM THE HISTORY OF THE MILITARY AND POLITICAL RELATIONS OF THE ASHTARKHANID DYNASTY AND THE SAFAVID STATE

Annotation

This article analyzes the political relations between the Ashtarkhanid dynasty and the Safavid state through sources and scientific literature. After the death of Bukhara Khan Shaybani Abdullah Khan II, Herat and Khurasan in general fell under the influence of the Safavid dynasty ruling Iran. The Safavids did not limit themselves to these regions, they looked for ways to subjugate Balkh and even Bukhara. The article covers issues such as mutual relations between Iran and Bukhara, the struggle for Balkh after the conquest of Khorasan.

Key words: Balkh, Herat, Shaibani sultans, Ashtarkhanids, Safavids, king, khan, emir.

Kirish. Xuroson Safaviylar sulolasi hukmronligiga o'tgandan so'ng, Eronning Buxoro xonligi bilan munosabatlari yomonlashgan. Buning asosiy sabablaridan biri shoh hukumatining ularga qarshi olib borgan siyosati edi. Bu siyosat O'rta Osiyodagi unumador yerlarni va boy shaharlarni bosib olishga qaratilgan. O'rta Osiyo Safaviylar sulolasini boshqa tomondan ham o'ziga tortgan. Ya'ni Safaviylarning bir qator boshqa davlatlar, jumladan, Sibir va Sharqiy Turkiston bilan savdo-sotiq bog'lagan yo'llar ham shu yerdan o'tgan. Safaviylar davlati bilan xorijiy davlatlar o'rtasida O'rta Osiyolik savdogarlar vositachilik qilgan[5].

Safaviylarning asosiy maqsadlaridan biri bu Balx va hatto Buxoroni egallash bo'lgan. Tarixchi olim Azamat Ziyo fikriga ko'ra, qizilboschlari (1602, 1605, 1606, 1607) bir necha bor ushbu rejalarini amalga oshirganiga qaramay, biror bir natijaga erisha olmagan[8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ashtarkoniylar sulolasi va Safaviylar davlati harbiy-siyosiy aloqalari tarixining turli jihatlarini Iskandarbek Munshiyning "Tarixi olamroyi Abbosi", Hoji Mir Muhammad Salimning "Silsilat us-salotin", Muhammad Yusuf Munshiyning "Tarixi Muqimxoniy" kabi asarlardan o'rganish mumkin. Shuningdek, N.D. Miloxo-Maklay (1980), Azamat Ziyo (1989, 1990, 2001) Audrey Burton (1997), A.M. Dehkurdii (2006), A. Saidov

(2010), Tofiq Nejefli (2021) kabi olimlar Eron-Buxoro siyosiy aloqalari tarixi bilan bog'liq maxsus tadqiqotlar olib borgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda tarixiylik, tizimlilik, xolislik, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalanilib, Buxoro xonligini idora qilgan Ashtarkoniylar va Safaviylar sulolasi o'rtasidagi o'zaro siyosiy munosabatlar tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Shoh Abbas I Xurosonni bosib olganidan so'ng[6] darhol o'z rejalarini amalga oshirishga kirishadi va 1599-yilda Xurosonga boradi. Uning tashrifidan maqsad Mashhaddagi Imam Rizo ziyoratgohini ziyorat qilish bo'lgan[5].

Abbos I ning Xurosonga tashrifining asosiy sabablaridan yana biri shimoliy hududlardagi Marv, Niso, Obivard, Dorun kabi viloyatlarni o'z kuchi va hokimiyatini qo'lida saqlab qolish bo'lgan. Mazkur davrida ushbu hududlar Abbas I ning vakili Xorazm shahzodasi Nurmuhammadxon tomonidan boshqarilgan. Bu hududlarda shoh Abbas I hokimiyatining kuchayishini istamagan ko'chmanchi qabilalar xususan naymanlar Nurmuhammaxonga qarshi bo'lgan. Shu sababli Shoh Abbas I Nurmuhammadxonga yordam berish va o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida Xurosonga boradi[5]. Shoh Abbas I Markaziy Osiyodagi ichki

tartibsizliklar va fuqarolar o'rtasidagi nizolardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga qaror qilgan.

Safaviy shoh Abbas I Xurosonga yetib kelguniga qadar uning huzuriga Buxorodan shayboniy hukmdori Pirmuhammadxon va Marvdan Nurmuhammadxon elchilar kelgan. Ushbu elchiliklar shoh Abbas I ga O'rta Osiyodagi siyosiy vaziyatni yaxshi bilishga va uning ichki ishlariga aralashishga yo'l ochib bergan.

Bu davrga kelib Mavarounnahrda Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar o'rtasida oliy hokimiyat uchun kurash avj olgan edi. Ulardan biri ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1599-1605) edi. Boqi Muhammadxonga qarshi yana bir shayboniy shahzoda Pirmuhammadxon Buxoro taxtini egallagan[3].

Tarixchi Iskandarbek Munshiy yozishicha, Shoh Abbas I Xurosondagi ishlar bilan tanishish, Mavarounnahr-dagi vaziyatni nazorat qilish va Xorazm shahzodasi Nurmuhhammadxonni himoya qilish maqsadida Xurosonga borishga qaror qilgan. Buxoro amirlari va Pirmuhammadxon tomonidan yuborilgan elchilar Shoh Abbas I tomonidan qabul qilingan[3]. Pirmuhammadxon yuborgan elchilar orqali shoh Abbas I dan Bag'dodda qizilboshlilar tomonidan asirga olingan Jonibekning neverasri Muhammad Ibrohimni ozod qilishni so'ragan. Buxoro amirlari ham Muhammad Ibrohimni ozod qilishni shohdan iltimos qilgan. Buxoro amirlarining maqsadi Pirmuhammadxonni taxtdan olib tashlash edi. Chunki Samarqandda hokimlik qilayotgan Boqi Muhammadxon ham Buxoroga tahdid solayotgan edi[3]. Shoh Abbas I muammoni hal qilish maqsadida vositachilik qilayotgan Nurmuhhammadxonga maktub yuborib, Buxoro amirlari o'z majburiyatlariga sodiq qolib, Marvda Muhammad Ibrohimni kutib olishlarini va masala hal bo'lganligini yozgan. Qizilboshlilar Semnan (Simnon)ga yetib borgach, Nurmuhhammadxon elchisi Shoh Abbas I tomonidan qabul qilingan. Elchi safaviy shohiga Boqi Muhammadxon Pirmuhammadxonga hujum qilib, uni o'ldirganini hamda davlatni o'z qo'liga olganini xabar bergan[1].

Boqi Muhammadxonning Mavarounnahr-dagi g'alabasi Shoh Abbas I ni Buxoro xonligini bosib olishga doir rejalaridan voz kechishga emas, faqtgina rejalarini biroz o'zgartishga majbur qilgan. Balx zodagolarining murojaati tufayli shoh Abbas I Balx ichki ishlariga aralashishga uringan. Bu vaqtida Balxdan bir elchilik Muhammad Ibrohimni talab qilib Isfahonga kelgan[2]. Chunki Boqi Muhammadxonning Mavarounnahr-dagi g'alabasi Balx amirlarini xavotirga solgan.

Balx hukmron doiralari o'z kuchi bilan Boqi Muhammadxonga qarshi kurashda hokimiyatni saqlab qolishga umid qilmadilar, bundan ko'ra ular Shoh Abbas I huzuriga Muhammad Ibrohimni ozod qilish maqdadida elchi yuborgan. Shoh Abbas I bu iltimosga darhol javob qaytaradi va bu uning rejalariga to'liq mos bo'lgan. U darhol Muhammad Ibrohimga hukmdorlik rutbasini bergen va uni o'zining "o'g'li" deb e'lon qilgan. Shu tariqa rasman shayboniy shahzodasini o'z himoyasiga olgan. Bundan tashqari, shoh Abbas I Balx hukmdori Abdulmo'minxonga maktub yozib, bu yerda azaldan marhum podshoh Jonibekxon o'g'lining ota-bobolari maskani ekanligini bildirgan[3].

Boqi Muhammadxon o'z hokimiyatini mustahkmlagan bo'lsada, Shoh Abbas I Jonibek sultonning o'g'li Muhammad Ibrohimni taxtga o'tqazishga qaror qilgan.

Boqi Muhammadxonga Abdulmo'min tabrik yo'llagan bo'lsada, unga unchalik ahamiyat bermagan. U Balx hokimini ma'qullamagan. Shundan keyin, Abdulmo'minxon Boqi Muhammadxonga Samarqandda jang qilish uchun askar tortadi. Balxdagi vaziyatdan xavotir olgan amirlar Shoh Abbas Iga yana maktub yo'llab, Muhammad Ibrohimni yuborishni iltimos qilgan. Shoh Abbas I Muhammad Ibrohimni ikki maktub bilan Balxga yuboradi. Maktubning biri

Abdulmo'minxonga, ikkinchisi esa Balxdagi amirlarga yozilgan. Shoh Abdulmo'minxonga "o'g'lim" deb murojaat qilib, Jonibekxonning o'g'illaridan biri bo'lgan Muhamad Ibrohim bilan adovatni tugatish va uni Balx xonligi taxtiga keltirmoqchi ekanligni bildirgan[3]. Amirlarga yozilgan maktubda esa Abbas I Jonibekxonning o'g'lini qo'llab-quvvatlashlarini so'ragan[3]. Ammo tez orada Shoh Abbas I Balx zodagonlarining asl niyatlaridan shubhalangani uchun Mashhadga kelgan Muhammad Ibrohimni yuborishni kechiktirishga qaror qilgan va Balxdagi vaziyatni aniqroq o'rganish, aholining qo'llab-quvvatlashiga aniqlik kiritishga qaror qilgan. Shu sababdan Abbas I Ruhallabey Zulqadarni o'zbek elchilar bilan birgalikda Balxga yuborgan[2].

Iskandarbek Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, 1600-yil bahorida shoh Abbas I Hirotg'a borgan. U Marv hokimi Nurmuhhammadxon va Xorazm hokimi Hoji Muhammadxon elchi yuborib, ularni Mavarounnahr masalalarida maslahatlashishga taklif qilgan. Hoji Muhammadxon yo'lida kasal bo'lib qolgani uchun borib bilmagan. Nurmuhhammadxon esa asossiz sabablarni aytib, kelishdan bosh tortgan[3].

1600-yil aprel oyida Balxdagi vaziyat haqida Shoh Abbas I tomonidan yuborilgan Ruhallabey Zulqadar qaytib kelgan. Ruhallabey Zulqadar aytishicha, u olib borgan maktub Balxda katta shov-shuvlarga sabab bo'lgan, balxliklarning bir qismi Muhammad Ibrohimni qo'llab-quvvatlagan, boshqalari esa uni qo'llab-quvvatlamagan.

Safaviylar shohi Balxning harbiy amadorlari orasida ikki guruh borligini aniqlagan: biri Muhammad Ibrohim tarafdarları, ikkinchisi, Abdulmo'minxon tarafdarları; shu bilan birga ikkinchi tarafdarlar hokimiyatni boy berilishidan qo'rqib, Muhammad Ibrohimning Balxga kelishiga keskin qarshilik ko'rsatgan. Abdulmo'minxon tarafdarları bir to'xtamga kelish uchun yig'ilish o'tkazganlar[3].

Ular yig'ilishda Muhammad Ibrohim Abdulmo'minxonni katta akadek hurmat qilishi va amirlarga bo'y sunishini, Mavarounnahr tamomila egallaganidan keyin Abdulmo'minxon Balxda, Muhammad Ibrohim esa Buxoroda qolishi sharti bilan rozi bo'lganliklarini aytishadi. Balxdagi zodagonlar Abdulmo'minxonni ranjitmaslik uchun shahar tashqarishida Muhammad Ibrohim bilan uchrashishni rad etishgan. Maymanada Muhammad Ibrohim uchrashgan delegatsiya uning kelishuv shartlarini bajarmasligini va Abdulmo'minxonga itoat qilmasligini tushungan. Shuning uchun zodagonlarning bir qismi yig'ilishni tark etib, Balxga qaytadi. Qolgan ayonlar Muhammad Ibrohimning qizilbosh askarlar bilan kelishga qarshi chiqdi va Muhammad Ibrohimning ularga taslim bo'lishini talab qilgan. Budaqxon va Xudoynazarbek bu shartlarni rad etishgan. Har ikki tomon vakillari vaziyatga oydinlik kiritish maqsadida Shoh Abbas I bilan uchrashib, uning buyrug'ini amalgaga oshirishga qaror qilgan[4].

Hirotda har ikki tomonning elchilar shoh huzuriga bordilar. Abbas I qarorgohida bu boradagi uzoq muzokalarlardan keyin ikkala tomonni yarashtirish bo'yicha kelishuvga erishilgan. Abdulmo'minxon "katta aka" va Muhammad Ibrohim "kenja uka" deb e'lon qilingan. Mavarounnahr zabit etilganidan so'ng, ularning biri Buxoroga, ikkinchisi esa Balxga hukmdor bo'lishi kerak edi. Balx zodagonlari vakillari roziligi kelganidan so'ng, shoh Abbas I Muhammad Ibrohimni qizilbosh qo'shini bilan Balxga yuborgan. Shoh Abbas I Muhammad Ibrohimning Buxoro va Mavarounnahr g'arbida boshqinchilariga qarshi qo'shin boshqarishini va bu jang rejalarida Abdulmo'minxon va zodagonlarning birgalikda qo'shilib, harakat qilishini bildirgan. Shoh Balx hokimi Abdulmo'minxonning nazorati-

dagi hududlar uchun hech bir rejasiz yo'qligini o'zbeklar bilan kelishishga tayyorligini bildirg'an[3].

Muhammad Ibrohimga shoh Abbos I imperiya qurollarini bergen va Mashhad hokimi Budaqxon va Ibrohim Husaynxon Feruzjongilar unga hamrohlik qilgan. Muhammad Ibrohim qizilbosh jangchilar va Xudoynazarbek bilan birlgilidka Balx tomon harakatlangan[3].

Muhammad Ibrohim qizilbosh jangchilar va Xudoynazarbek hamrohligida Balx tomon harakatlangan. U sarkardalar Imomquli va Pokiza Turkmanni amakisining oldiga yuborib, uning Balxga borayotganini va aholini kutib olishini bildirgan. Sarkarda Imomquli Balxga yetib borib, ushbu xabarni yetkazgan. Bir qancha zodagon va amirlar Muhammad Ibrohimni kutib olish maqsadida Maymana chegarasiga borgan. Uni kutib olishgan va ko'plab masalalar yuzasidan gaplashishgan. Balxlilik zodagonlari Muhammad Ibrohimni bo'yin egmasligini tushungan[3.134]. Abdulmo'minxonga sodiq bo'lgan ba'zi kishilar shaharga qaytishgan. Bir guruh kishilar esa qizilbosh qo'shining yordamga kelishiga qarshi chiqqan. Budaqxon va Xudoynazarbeklari ushbu taklifga rozi bo'lishmagan va ushbu vaziyatni shohga bildirishgan[1]. Balx amirlari Shoh Abbos I ga o'z elchilarini yuborib, shunday takliflarni yozishgan: "Biz shuni sizga bildiramizki, Muhammad Ibrohim Buxoro qo'shinlarini tortib, Mavarounnahrdagi soxta odamlar qo'sidan hokimiyani olsin. Bizning hukmdorimiz Abdulmo'minxon, Balx amirlari va zodagonlari bilan hamkor va hamjihatdir. Biz Balx xonligini va Abdulmo'minxon tomonidan zabt etilgan yerlarni undan tortib olishni istamaymiz va Balxga qizilbosh qo'shinlarini kelishini istamaymiz". Tomonlardan orasidagi kelishuvga erishilgach, shoh sarkarda Imomquli va Pokizani ikkinchi marotaba Balxga yuborgan va balxliklar bilan uchrashgan. Ushbu kelishuvlar natija bermagach, Abbos I murosa qilishga majbur bo'lib, Balxni egallash niyatidan voz kechgan. Ammo Muhammad Ibrohimning tarafdozlari shoh vakillari bilan yashirin kelishuvga erishgan. Mazkur kelishuvga ko'ra amaldozlar Abdulmo'minxonni taxtdan ag'darilib, Muhammad Ibrohimni hukmdor qilib ko'tarishga vada berishgan[3]. Muhammad Ibrohim shohning roziligidini olib qizilbosh qo'shinlari bilan Maymanani tark etib, Balxga yo'lda tushgan. Balxga yetib borgan zahoti Muhammad Ibrohim tarafdozlari fitna uyuştirib, Abdulmo'minxonni o'ldirgan. Shundan so'ng, Muhammad Ibrohim Balx hokimi bo'lgan. Shayboniyalar davlatining muhim mintaqalaridan biri bo'lgan Balx 1600-yil iyul oyida Muhammad Ibrohim qo'tgan[1]. Tez orada uning hokimiyati Maymadan Badaxshongacha, Hisori-Shodmondan Amudaryoning shimaliga qadar kengaygan. Muhammad Ibrohim ushbu vaziyatni shoh Abbos I ga xabar qilgan. Uning saltanati va qudrati haqidagi xabar Mavarounnhrga yetib borib, Boqi Muhammadxonni xavotirga solgan. 1600-yil kuzida Boqi Muhammadxon Badaxshon va Balxga yurish qilgan. U

Jonibek o'g'illari va shahzodalar tomonidan boshqarayotgan Chag'oniyon va Hisori-Shodmon kabi hududlarni qamal qilgan. Bu shaharlarni hokimlik qilayotgan Jonibek o'g'illari Mahmud Sultan, Ubaydulla Sultan va Abdulla Sultanlar Boqi Muhammadxonidan yengilib, Balxga Muhammad Ibrohim huziriga panoh istab borgan. Keyinchalik Boqi Muhammadxon Termizga yurish qilgan. U qaynotasi Abdi Xo'ja Jo'yboriy Termiz hokimi otasining shayxi bo'lganidan foydalanib, shaharni jangsziz egallagan[2].

Muhammad Ibrohim Balxda yuksak martaba ega bo'lgan amirlarga qarshi qattiqqo'l siyosat olib borgan. Shu sababli Balx aholisi unga nisbatdan dushmanlik bilan munosabatda bo'la boshlagan, chunki Muhammad Ibrohim yashirincha o'zini shia deb e'tirof etib, sunnii bo'lgan aholining noroziligiga sabab bo'lgan[16]. U Balxdagi hukmronlik davrida aysh-ishratga berilib, ko'plab begunoh insonlarni qatl qila boshlagan. Hatto Shoh Abbos I tomonidan unga maslahatchi qilingan Xudoynazarbekni ham o'ldirgan. Muhammad Ibrohim Balxda atigi bir yil hukmronlik qilib, 1601-yil noyabrda vafot etgan[16.13]. Iskandarbek Munshiy ma'lumotlariga ko'ra, Muhammad Ibrohim chechak kasalligidan vafot etgan[1]. Bu davrda Muhammad Ibrohimning tarafdozlariidan biri bo'lgan Jonibekning o'g'illaridan biri Ubaydulla Sultan boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tariladi. Ular Boqi Muhammadxon tomonidan yuborilgan Vali Muhammadxon boshchiligidagi qo'shinga qarshi kurashmoqchi bo'lgan. Muhammad Ibrohim vafotidan xabar topgan Boqi Muhammadxon fursatdan foydalanib, Hisori-Shodmon qal'asini qamal qilishni to'xtatib, Baxlni zabt etishga qaror qilgan. U ukasi Vali Muhammadxonni Balxni zabt etish maqsadida qo'shin bilan yuborgan. Balx aholisi Boqi Muhammadxonga xayrihoh ekanligni bildirgan va Balxdagi qo'shin Vali Muhammadxon tomoniga o'tgan[7]. Ubaydulla Sultoning tarafdozlariidan biri bo'lgan devonbegi Yormuhammadbek Pirmuhammadning o'g'li Muhammad Salim va 13 yoshli shahzoda Jahongir Sultonni olib, Safaviylar shohi saroyiga qochgan. Ubaydulla Sultan va uning ukasi Boqi Muhammadxon bilan birga qolgan. Boqi Muhammadxon ularni Chag'oniyon va Hisori-Shodmonga hokim qilib tayinlagan[1]. Shunday qilib, Vali Muhammadxon bir oydan kamroq vaqt ichida Balxni egallab, Buxoro xonligi hududiga qo'shib olgan[7]. Balx yana Buxoro xonligi hududiga qo'shib olingan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Safaviylar Shayboniyalar inqirozidan so'ng, muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Xurosomni bosib olgan bo'lsada, Balx va Buxoroni o'ziga bo'ysuntira olmagan. Qizilboshlar (1602, 1605, 1606, 1607) bir necha bor ushbu rejalarini amalga oshirganiga qaramay, biror bir natijaga erisha olmagan. Shunday bo'lsada, ma'lum darajada Buxoroni 1601-1753-yillarda idora qilgan Ashtarkoniylar va Safaviylar sulolasini o'rtaida ma'lum darajada siyosiy aloqalar olib borilgan.

ADABIYOTLAR

- İsgəndər bəy Münsi Türkman. Dünyani bəzəyən Abbasın tarixi (Tarixe-aləmaraye-Abbasi). I kitab. Bakı, "Şərq-Qərb" Nəşriyyat evi, 2010. – 1144 s.
- Burton A. The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550-1702. Curzon, 1997. – 664 p.
- Tofiq Nəcəfli. Azərbaycan Səfəvi imperiyasının Türküstan xanlıqları ilə siyasi əlaqələri. "İdeal-Print" MMC, Bakı, 2021. – 342 s.
- Дехкурди А.М. Взаимоотношения Ирана и Бухарского ханства в XVI-первой половине XVIII вв. автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. Душанбе. 2006. – 26 с.
- Миклох-Маклай Н. Д. Балхский поход шаха Аббаса I // Страны и народы Востока, Москва., 1980. – 147-163 с.
- Армений Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. Тошкент: Info capital group, 2019. – 256 б.
- Мухаммад Юсуф Мунши. Муким-ханская история / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатели А.А.Семенова. –Ташкент: 1956. – 303 с.
- Зияев А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Ташкент: Шарқ, 2000. – 368 б.
- Юсупова Д. Мухаммад Юсуф Мунший ва унинг "Тазкирайи Муқимхоний" асари. Ўзбекистон тарихи хрестоматияси 3-жилди. – Ташкент.: «Fan va texnologiya», 2014. – 43-45 б.

-
10. Саидов А. Политическое и социально-экономическое положение Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. Душанбе. 2010. – 301 с.



Sobirjon BEKNAZAROV,
Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi, mustaqil talqiqotchi
E-mail:beknazarovs@mail.ru

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori X.Raxmatov taqrizi asosida

ETHNODEMOGRAPHIC PROCESSES UNDER AMIR TEMUR AND TIMURIDS

Annotation

This article discusses ethnic processes during the period of Amir Temur and Timurids, as well as the location of the Barlos, Kangar-Kangli, Qarluq, Arghun, Duglat, Oguz, Yasauri, Uz and Az clans, as well as their social and cultural life.

Key words. Amir Temur, Temurians, Movarunnahr, ethno-demographic processes, Barlos, Kangar-Kangli, Karluq, Arghun, Doghlat, Oghuz, Yasavuriy, Uz and from the roots and others.

ЭТНОДЕМОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ ПРИ АМИРЕ ТЕМУРЕ И ТИМУРИДАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются этнические процессы в период правления Амира Темура и Тимуридов, а также местонахождение родов Барлос, Кангар-Кангли, Карлук, Аргун, Дуглат, Огуз, Ясаури, Уз и Аз, а также их общественная и культурная жизнь.

Ключевые слова. Амир Темур, Темурийцы, Моваруннахр, этнодемографические процессы, Барлос, Кангар-Канглы, Карлук, Аргун, Доглат, Огуз, Ясавурый, Уз и от корней и другие.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ETNODEMOGRAFIK JARAYONLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar davrida etnik jarayonlar, shuningdek barlos, qang'ar-qangli, qarluq, arg'un, dug'lat, o'g'uz, yasavuriy, uz va az urug'-qabilalarining joylashuvni, ularning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Amir Temur, temuriylar, Movarounnahr, etnodemografik jarayonlar, barlos, qang'ar-qangli, qarluq, arg'un, dug'lat, o'g'uz, yasavuriy, uz va az urug'lari va boshq.

Amir Temur Movrounnahr hokimiyatiga kelgach, mamlakatda mo'g'ullar hukmronligi barham topadi. Uning turkiy etnik asosini rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Amir Temur sultanating o'zagi hisoblangan Movarounnahr va unga tutash mintaqalarda mahalliy sug'diy, xorazmiy, boxtariy va sak qabilalari hamda bronza davridan e'tiboran yashab kelayotgan prototurk ajodolarimizning talay moddiy madaniyati mavjud ediki, bu etnik qatlamlar tarkibiga V – XIII asrlar davomida juda ko'p turkiy elat va qavmlar (qangli, qarluq, chigil, xalach, turk, o'g'uz, uz, arg'un, tuxsi, yag'mo, dug'lat, sulduz, yasavuriy, qipchoq, barlos, jaloyir, arlot, va boshqalar) kirib kelib, ular ta'sirida mintaqada qadimgi eroniy tilli (sug'diy, xorazmiy, bohtariy) ajodolarimizning turklashish jarayonini tezlashtirdi [1].

Ularning aksariyat ko'pchiligi O'rta Osiyoning Amudaryogacha bo'lgan hududlariga joylashib, mahalliy aholi bilan aralashib yashaganlar. XI–XIII asrlarga kelib Movarounnahrda etnik holat shu darajada o'zgardiki, endi bu zamin to'la qonli Turkistonga aylandi, turkiy etnik qatlaml mintaqada har jihatdan hukmron etnos bo'lib qoldi. Chingizxon bosqini va Chig'atay ulusini tashkil etish munosabati bilan bu zaminga kirib kelgan mo'g'ullarning Dashti Qipchoqda qolib ketgan urug'-aymoqlari XIV – XV va keyingi asrlarda Movarounnahrda yuz bergan siyosiy voqealarda faol qatnashib, turkiyashib ketgan edilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnik kelib chiqish jihatidan turk qavmlariga tegishli bo'lgan **uz** va **az** qabilalari o'zbek xalqi etnogenezida o'z o'rniaga ega. Ammo, ular haqidagi mavjud ma'lumotlar xilma-xil qarashlar va farazlardan iborat. Masalan, XIX asrning 60-80 yillarda tarixiy-etnografik asarlarda (G.Z.Bayer, D.A. Xvolson, F.Sum, S.M. Solovyov va boshqalar) uzlarni qipchoqlarning bir urug'i

sifatida tilga olinadi. N.M. Karamzin, M.P. Pogodin, F. Brun, P. Golubovskiyler rus yilnomalariga asoslanib, uzlarni torklar tarkibiga kiritgan. I.N. Jiteskiy uzlarni bajanaklar qabilasiga tegishli urug' jamoasi desa, N.A. Aristov, V.V. Bartold, S.A. Pletneva, S.G. Agadjanovlar uzlarni o'g'uzlar tarkibiga kirgan qabila sifatida talqin etadi. D.A. Rasovskiy uzlarni o'g'uzlar tarkibiga kiritishni asossiz hisoblab, ularni torklar qavmiga tegishli urug' jamoalaridan biri, deydi. M.M. Ermatov "az" va "uz" etnonimlari bitta qavmga tegishli, "O'zbek" so'zi aynan ana shu atamalardan kelib chiqqan, deydi. R.A. Agaeva "o'zbek" etnik nomi "az" va "uz" etnonimlaridan kelib chiqqan. Elshunos olim K.Shoniyofovning ta'kidlashicha, "uz" va "az" etnonimlari alohida qabilalar bo'lgan. Ularni na torklar, na qipchoqlar, na bajanaklar, na o'g'uzlar tarkibidagi urug' jamoalarini deb atash xatodir. Mayjud tarixiy-etnografik materiallar tahliliga ko'ra, ular o'tmishda turkiyda so'zlashuvchi bir necha urug' jamoalarining mustaqil qabila ittifoqi bo'lgan deydi [7].

Atoqli elshunos olim Karim Shoniyofovning yozishicha, shu asrlarda Movarounnahrda yashovchi qarluq, chigil, xalach, arg'un, barlos, jaloyir, arlot, qavchin, o'g'uz va qipchoq qavmlari salmoqli etnik guruhlari XIV – XV asrlar davomida o'troqlashib, mahalliy aholina aralashib ketgan edi. Ularning faqat uncha katta bo'lmagan guruhlari yarim o'troqlikda yashab, lalmikor dehqonchilik va bog'dorchilik bilan birga, an'anaviy mashg'ulotlari – yaylov chorvachiligi bilan shug'ullanib kelgan. Ana shunday turk va turklashgan mo'g'ul qabilalardan ba'zi birlari haqida to'xtab o'tamiz.

XIII asrning 60-yillarida tashkil topgan Chig'atay ulusining Amir Temur va temuriylar sultanating tayanch etnik guruhlaridan biri barloslar bo'lgan. Ular Amir Temur boshchilligida mo'g'ullar hukmronligini Movarounnahrda

barham topishida faol qatnashib, mamlakat ichki hayotining barcha jahbalarida oldingi saflarda bo'lgan. Amir Temir o'g'il va nabiralariga u yoki bu yurtni suyurg'ol qilganda, u yerga, eng ishonchli kishilar sifatida barloslardan qo'shib yuborgan. Ulardan ma'muriy mansablarda ham foydalaniłgan. Masalan, Tag'ay-bug'o barlos Buxoroni, Dodmalik barlos Hisori Shodmonni, G'iyosiddin barlosning o'g'li Kirmanni boshqargan.

Amir Temur vafotidan keyin barloslar uning avlodlariga sadoqat bilan xizmat qilishda davom etadi. Shoxruh Mirzo davlat siyosatini ular doimo qo'llab-quvvatlab kelganlar, Ulug'bek 14 yil Qashg'arni o'z hukmida saqlab turishida ko'proq ularga suyangan, Pirmuhammad barlosning Qashg'arni boshqarishida barloslar bosh-qosh bo'lgan [2].

Abdurazzoq Samarqandiyning ma'lumotlariga ko'ra, XV asrda barloslar Temuriylar davlatining turli viloyatlarda yashab, ularning vakillari amir unvonida temuriyzodalarga xizmat qilgan. Ular avval joylarda etnografik urug' jamoalarini sifatida yashab kelgan. Keyin mahalliy aholi til ta'sirida mutlaqo turkiylashadi. Ammo, Mavarounnahrdan va uning atrof viloyatlarda Shayboniyalar hukmronligi o'rnatilgach, barlos-larning avvalgi mavkei pasayib ketdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mahalliy sug'diy tilli aholi va o'zga etnik guruhlarning turkiylashish jarayoni avval Sirdaryoning o'rta va quiyi havzalarida jadal kechadi. Bu mintaqada turkiylashgan qang'ar-qangli elati tarkib topadi. Qang'ar-qangli elatinining etnik tarkibi ko'p komponentli bo'lib, unda turkiy jilo ustuvor mavqega ega edi. Biroq, Qang' davlati parchalangach, K.Shoniyoziq qayd qilganidek, ko'p etnik komponentli qang'ar elati ham tarqab ketdi, yaxlit elat sifatida rivojlanishda davom etmadidi. O'z davrida uning tarkibida bo'lgan qanglilar Chingizxon bosqiniga qadar Xorazmda va Samarqand atrofida yashagan. Ularning asosiy qismi Dashti Qipchoqda, Balxash qo'li atroflarida, Ila daryosi sohillarida ko'chib yurgan. Ularning Dashti Qipchoq guruhlari Amir Temur davrida Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasiga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib o'troqlashib ketgan.

O'zbek xalqi etnik tarkibida ustuvor o'rın olgan turkiy ajdodlarimizdan yana biri qarluqlar hisoblanadi. Qaluqlarning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelishi bir necha xronologik bosqichlarda yuz bergan. Ularning birinchi guruhi milodiy VI asrda boshlab Farg'ona vodiysi, Toshkent vohasi va Toxaristonga kelib o'nashib, mahalliy aholi bilan aralashib, qorishib, o'troqlashib ketgan. Ikkinchisi guruhi qarluqlar mo'g'ullar bosqini davrida Ili daryosi havzasi va Yettisuvdan Toshkent va Zarafshon vohalariga, Shimoliy Toxaristonga kelib o'nashib, bu yerlarda oldindan kelib qolgan urug'-aymoqlari bilan qo'shilib ketgan. Qarluqlarning uchinchi guruhi XV asrda Dashti Qipchoqdan Farg'ona vodiysiga ko'chib kelgan [3:166]. Karluqlar va ularga qardosh xalach va chigil qabilalari XIV – XV asrlarda Zarafshon vohasida, Toxaristonda yashar edi. Ular Mavarounnahrdaning siyosiy hayotida muhim rol o'ynagan. Dashti Qipchoqda qolib ketgan qarluqlar guruhi Shayboniy qo'shinlari bilan birga XVI asr boshlarida Mavarounnahrga kirib keladi.

Tahlil va natijalar. O'zbek xalqi etnik tarkibida arg'unlar o'z o'nini topgan. Sirdaryoning o'ng qirg'oq quiyi havzalarida yashovchi arg'unlearning ayrim guruhlari VIII – XII asrlar davomida Toshkent vohasiga, Farg'ona vodiysining O'zgan atroflariga, Zarafshon vohasi va Janubiy O'zbekiston hududlariga ko'chib kelib, mahalliy aholi bilan aralashib, ularning katta qismi o'troqlashib ketadi. Ularning bir guruhi XI asrda Xuroson hududlariga borib o'nashadi. XIV-XV asrlarda arg'unlearning asosiy qismi Farg'ona vodiysida, Janubiy O'zbekiston va Shimoliy Afg'onistonda yashagan. Ular borgan joylarining til muhitiga ko'ra, yo mahalliy aholini

turklashishiga yordam bergen yoki ular ta'sirida o'z etnik nomlarini unutmagan holda forsiy tilli tojiklarga aylangan.

Arg'unlar Amir Temur davlatining tayanchi bo'lgan qirq o'zbek qavmlaridan biri bo'lgan. Ular imtiyozli katta yer egalari – taxxonlar hisoblangan. Arg'unlardan chiqqan amirlar ayrim viloyatlarda hokimlik qilganlar. Masalan, Sulton Xusayn arg'un Qorako'l tumanining hokimi, Mahmud Muqim arg'un Qobul hokimi bo'lgan. Arg'unlearning yuqori tabaqali kishilari Temuriylar xonadoni bilan qarindoshlik munosabatda ham bo'lgan. Mavarounnahrdan Shayboniyalar hukmronligi o'rnatilgach, arg'unlearning mavkei tushib ketadi. Ular asosan o'troqlashib, turg'un aholi bilan qorishib ketgan.

XIV – XV asrlarda Mavarounnahrdan yashagan yirik chorvador qabilalardan yana biri dug'latlar hisoblanadi. Rashididdin ularni mo'g'ul qabila ittifoqiga kirgan turkiy qabila deydi, V.V.Bartold esa ularni mo'g'ul deydi. N.A. Aristov dulu va dug'lat bir xalq degan g'oyani o'rtaga tashlaydi. Darhaqiqat, Turk xoqonligi inqirozga uchragach, uning tarkibida bo'lgan dulu qabilalarining bir qismi ona yurtlari Ili vodiysi, Yettisuvni tashlab, boshqa yurtlarga ko'chib ketadi, qolgan qismi esa ona yurtlarida yashashda davom etadir.

Chig'atoy ulusi tashkil topgach, Chig'atoy ulusining sharqiy hududlarida Manglay Suba (quyosh tomonga qaragan yer) mulki tashkil topadi. Bu mulkka Yettisuvdan to Qashg'argacha bo'lgan yerlar qaragan va uni boshqarishni Chig'atayxon dug'latlarga topshirgan. Dug'latlar boshqargan yurtlar manbalarda "Mo'g'uliston" atalib, u hududlarning dulu turkiylari, hatto dug'latlarning o'zlarini ham yurt nomi ostida dug'lat-mo'g'ul bo'lib ketgan. Bu fikr O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham o'z aksini topgan [4].

Dug'latlarning ayrim guruhlari XIV – XV asrlarda Farg'ona vodiysida, Samarqand va Hisorda, Qorategin va boshqa joylarda tarqoq holda yashaganlar va turkiyida so'zlashganlar. Hisor dug'lat sultonlari Bobirga beg'araz xizmat qilganlar.

XIV – XV asrlarda Mavarounnahrdan yashagan yana bir yirik qabila o'g'uzlar edi. Ularning bir guruhi Sirdaryoning quiyi havzalaridan X asrda Somoniy amirlaridan iltimos qilib, Nurota tog' yonbag'irlariga ko'chib kelgan. O'g'uz saljuqlarining turkman guruhlari XI – XII asrlarda Qoraxoniylar davrida Buxoro atroflari, Shimoliy Xurosonga, ya'ni Hozirgi Turkmaniston hududlariga kelib o'rashadi.

XIV – XV asrlarda Sirdaryoning quiyi havzasi va Dashti Qipchoqdan Mavarounnahrga yana bir qancha o'g'uz, saljuq turkman guruhlari kirib keladilar. Asrlar davomida o'zbeklar bilan yonma-yon yashab kelgan o'g'uzlar va saljuq turkmanlarining bir qismi o'z etnik nomlarini unutmagan holda o'troqlashadilar. Ularning keyingi avlodlari o'zlarini o'zbek turkmanlari yoki "Nurota turkmanlari" deb ataganlar.

Temuriylar davrining turkiy tilli qabilalardan yana biri sulduz qabilasi bo'lib, Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" sida aks etgan tarixiy voqealar bayonida ular XIV asrda Chag'oniyon, Hisor vodiysi va Shimoliy Afg'onistonda Balx viloyatida yashaganligi qayd etilgan. Hisori Shodmonagi sulduzlarning amiri Bayon sulduz Chig'atay ulusining g'arbiy qismida e'tiborli amirlardan va amir Qazag'onning Hirotg'a yurishida qatnashgan. Amir Qazag'onning o'limidan so'ng, uning o'g'li amirzoda Abdulloh Chig'atay ulusi g'arbiy qismida hukmronlikni egallaydi va Samarqandni o'ziga poytaxt qiladi. U Chingiziyoda mo'g'ul amirlaridan avval Bayonkulixonni, so'ng Temurshoh o'g'lonni soxta xon qilib ko'taradi. Bundan norozi bo'lgan Bayon sulduz lashkar yig'ib, Hisori Shodmonidan Samarqandga yurish qiladi. Unga Hoji barlos ham qo'shilib, ular ikkovlashib Abdullohn Samarqanddan quvib chiqaradilar. Amir Temurni hokimiyatga chiqishi oldidan Mavarounnahrdan yuz bergen feodal tarqoqlikni avj

olishida Bayon sulduzning roli bo'lgan. Chunki, u avval Chingiziyoda Tug'luq Temurga xayrixoh bo'lgan, keyinchalik Amir Temurning mo'g'ullarga qarshi kurashida uning tomoniga o'tib, 1370-yilgi Balx janglarida o'z qo'shinlari bilan qatnashib, Amir Temurning ishonchli amirlariga aylandi.

Amir Temurni sulduzlar bilan qarindoshligi ham bo'lgan, ya'ni Sohibqiron Bayon sulduzning qizi Ulusni o'z haramiga olgan. Bayon sulduzning o'g'li Shayx Muhammad sulduz dastlab Amir Temurga sadoqatli bo'lgan, biroq keyinchalik Temurga qarshi uyushtirilgan suiqqasdda qatnashib qatl qilingan [5:40].

Amur Temurga sadoqat bilan xizmat qilgan qabilalardan yana biri yasavuriy bo'lib, ular Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida tilga olinishiga qaraganda Samarqand atrofidagi Saripul va Totkanda yashagan. Ularning sardori Xizr Yasavuriy vaziyatga qarab siyosat yurgizuvchi bo'lgani bois, u goh Tug'luq Temurga, goh Amir Temurga

yon bosib, og'machilikda nom chiqargan. U 1365-yilda vafot etgan. Shundan so'ng yasavuriylar Hoji Mahmudshoh boshchiligidagi to'la-to'kis Amir Temurga bo'yisinib, unga sadoqat bilan xizmat qiladi. Amir Temur ham Hoji Mahmudshohni janglardagi jasoratini hisobga olib, 1370-yilgi Balx yurishidan qaytgach, Keshda mansab taqsimlaganda uni lashkarboshi etib tayinlaydi va u bilan qarindoshlik rishtalarini bog'laydi. Ilyos yasavuriyning qizi Baxt Malik og'anı Mirzo Jahongirga olib bergan. Bu nikohdan Mirzo Pirmuhammad dunyoga keladi. Amir Temur o'limi oldidan uni o'ziga taxt vorisi qilib tayinlagani haqida Ali Yazdiy yozgan [6].

Xullas, Amir Temur va temuriylar davrida bir qator turkiy va mo'g'ul qabilalari Movarounnahr hududiga kirib kelib o'troqlashadi. Ushbu qabila va urug'lar mintaqaga aholisining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy hayoti, shuningdek o'zbek xalqining etnik tarkibining kengayishiga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Аскаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. 452-бет.
2. Мирза Муҳаммад Хайдар. Тарихи Рашиди. Перевод с персидского А.Уринбаева. – Т.: 1966. срт.43.
3. Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960. 166-бет.
4. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 3-жилд. – Тошкент: 2002. 393-бет.
5. Бўриев О. Шарофиддин Али Яздий "Зафарнома"сида Марказий Осиё аҳолисининг этник-худудий холати ҳақида маълумотлар // ЎзМУ хабарлари, - Т.: 2013. 40-бет.
6. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Т.: 1997. 296-бет.
7. Шаниязов К.Ш. Узы (из истории родоплеменных делений узбеков). "Общественные науки в Узбекистане", 1970, № II. – с.70.



Gulnoraxon VALIXONOVA,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti dotsenti, PhD

E-mail: gulivali@mailru

Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti, t.fff.d., S.N.Yusupova taqrizi asosida

NATIONAL DRESSES: TRADITIONALISM AND TRANSFORMATION

Annotation

In this article, the author describes the changes in the clothes and headdresses of the Uzbek and Uyghur peoples, who moved to the territory of present-day Uzbekistan in the second half of the 19th century and lived in a close ethno-cultural environment with the local peoples. changes are analyzed. The priority factors in the formation of clothes are also shown.

Key words: Clothing, evening, traditional, national, territory, gazlama, tailoring, cap, burq, buranji.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПЛАТЬЯ: ТРАДИЦИОНАЛИЗМ И ТРАНСФОРМАЦИЯ

Аннотация

В данной статье автор описывает изменения в одежде и головных уборах узбекского и уйгурского народов, переселившихся на территорию современного Узбекистана во второй половине XIX века и живших в тесной этнокультурной среде с местными народами. Проанализированы изменения. Также показаны приоритетные факторы формирования одежды.

Ключевые слова: Одежда, вечерняя, традиционная, национальная, территория, газлама, пошив одежды, шапка, бурк, буранджи.

MILLIY KIYIMLAR: AN'ANAVIYLIK VA TRANSFORMATSIYA

Annotatsiya

Mazkur maqlolada, muallif tomonidan XIX asr ikkinchi yarmidan hozirgi O'zbekiston hududlariga ko'chib kelib joylashib, mahalliy xalqlar bilan o'zaro yaqin etnomadaniy muhitda yashagan o'zbek va uyg'ur xalqlarining kiyim- kechak, bosh kiyimlarda yuz bergan o'zgarishlar tahlil etilgan. Shuningdek, kiyim kechaklarning shakllanishidagi ustuvor omillar ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Kiyim, kechak, an'anaviy, milliy, hudud, gazlama, tikilish, do'ppi, bo'rk, paranji.

Kirish. Ma'lumki, jahon xalqlarining milliy kiyimlari uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarda shakllanib, xalqning moddiy farovonligini aks ettiruvchi ko'zgu ham hisoblanadi. Jamiyatdagi iqtisodiy farovonlik, yonma-yon yashovchi etnoslar o'rtasidagi aloqalar hamda xalq ijodkorligining uyg'unlashuvi namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Kiyim-kechaklar doimiy o'zgarib, rivojlanib, takomillashib borishi jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-etnik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir.

An'anaviy kiyimlarni tadqiq etishda ularni erkak, ayol va bola kiyim turlariga bo'lingan. Kiyimlarni ijtimoiy-iqtisodiy sharotlardan kelib chiqib, yosh va mavsumga qarab tikilgan. Darhaqiqat, Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarning an'anaviy kiyimlari o'zları yashab turgan geografik mintaqaning iqlimi, ya'ni qishning quruq sovuq, yozning jazirama issig'iiga mos shakllanib borgan, albatta.

Tadqiqot metodologiyasi. XIX asrning ikkinchi yarmidan ommaviy ravishda hozirgi O'zbekiston hududlariga, asosan Farg'ona vodiysi va Toshkentga ko'chib kelgan sharqiy turkistonlik uyg'ular mahalliy aholi bilan etnomadaniy aloqalarga kirishar ekan, shubhasiz, an'analarini, milliy madaniyatning asosiy jihatlarini muayyan davr saqlab qolishga erishgan. Buning sabablari dastlab kompakt joylashuv, o'zi bilan birga olib kelgan buyumlari, xali hududning yangi madaniy yutug'ini bilmaslik deb hisoblash mumkin. Biroq hamma vaqt ham mintaqaga hududiga ko'chib kelgan etnik guruhlar milliy madaniyatiga xos bo'lgan (xususan, moddiy madaniyatdagi) jihatlarini saqlanmagan. Transformatsiyaga uchragan milliy madaniyat namunalari orasida moddiy madaniyat ya'ni, uy- joy qurilishi, kiyim –

kechaklar asosiy o'rinn tutadi. Yaratilishi murakkab, katta kuch va mablag' talab etuvchi yuqoridaq madaniy namunalar tez fursatlarda o'zgarishlarga uchrashi tabiiy.

Farg'ona vodiysi etnoslarini tadqiq etgan U.Abdullaevning ta'kidlashicha, «olib kelingan madaniyat»ga xos jihatlarning bir qismi o'sha davrlardayoq mahalliy aholi tomonidan qabul qilinmadni. Boshqa bir qismi esa, mahalliy an'analar bilan aralashib, ohir oqibat uning tarkibiga singib ketdi. Shubhasiz, bu jarayon xalq milliy kiyimlarda ham sodir bo'ldi [1.99].

Tahlil va natijalar. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, «ommaviy migratsiya» arafasidayoq sharqiy turkistonlik uyg'urlarning an'anaviy-milliy kiyimlarda bir qator o'zgarishlar va yangiliklar kuzatiladi. Buning sabablari quyidagilar bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida:

- Xitoy bosqini;
- o'zaro yaqin yashashgan xitoyliklar va dunganlarning sharqiy turkistonliklar madaniyatiga, xususan kiyim-kechaklariga ta'siri;
- bu davrga kelib uyg'ur aholisi katta qismining vodiy o'zbeklari orasida aralash yashaganlidir.

Shu sababdan bevosita mahalliy xalqlar ta'sirida kiyimlarda, mato va tikilish uslublarida o'zgarishlar yuz bera boshlagan. Biroq, bir qator an'anaviy kiyimlarni o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, bu hudud aholisining kiyimlari qanchalik uyg'unlashib bormasini, baribir XIX - XX asr boshlarida har bir etnik jamoa milliy kiyimlarda etnosga xos etnik va mahalliy xususiyatlar saqlanib qoligan edi. S.Gubaeva o'z tadqiqotlarida uyg'urlarning an'anaviy liboslari o'zbek, qirg'iz, tojik, qoraqalpoq va boshqa turkiy etnoslarga

xos bichilish va tikilish uslubidan katta farq qilmaganligini ta'kidlagan[2.514].

Xalq an'anaviy kiyimlarining shakllanishiga ta'sir etgan asosiy omillar ichida etnos xo'jalik faoliyatining yo'nalishi yetakchi o'ren tutib, chorvachilik bilan shug'illanuvchilar o'troqlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanish tobora rivojlangan. Bundan ko'rinish turibdiki, qayta ishlangan teri mahsulotlari, yengil, to'q matolardan cho'ponlar, chorvadorlarga kiyim tayyorlangan bo'lsa, dehqonchilik bilan shug'illangan aholi qismi mehnat turi uchun mos bo'lgan matolardan, tikilishi jihatidan ham qulay bo'lishi kerak.

Milliy kiyimlar haqida so'z ketganda, eng avvalo gazlama va matolar, ularning turlariga etibor qaratish lozim. Aholi kiyimlari uchun ishlatalayotgan ip-gazlama uy sharoitida tayyorlanib, teriga ishlov berilgan charm matolardan ham foydalilanigan. Qadim zamonlardayoq Sharqiy Turkistonning Xo'tan, Turfon, Qashqar kabi shaharlaridan nafis gazlama matolar eng ko'p keltirilgan hudud Farg'ona vodiysi hisoblangan. Qashqarda to'qib tayyorlangan matolarning 81 foizi O'rta Osiyoga yuborilgan[3]. Biroq, qadimiy xitoy manbalarining guvohlik berishicha, «bode» (paxta) gазмоли Farg'ona hukmdorlari tomonidan Sharqiy sin sulolasini imperatorlariga jo'natilgan[4].

Mavzuga oid adabitlar tahlili. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, XIX asr boshlarida Qashqardan surp, sariq, qora, jigarrang bo'z matosisi Farg'ona vodisiiga va shimoliy qirg'izlarga ko'plab keltirilgan. Hunarmandchilik buyumlaridan tashqari jun va teriga talab kuchli bo'lganligi sababli O'rta Osiyoga, uning yirik markazlari hisoblangan Qo'qon va Toshkentga ham olib kelish boshlangan[5].

Qashqar bo'zi (dabi), paxtadan xonaki tayyorlangan (barang), xitoy ipagidan tayyorlangan tovor(tovar-ipak mato), yarim ipak va biroz qo'polroq zarbof (parcha), to'q ko'k, yo'liyo'l (las) mato vodiy aholisi orasida juda mashhur bo'lgan. Qo'qon, Marg'ilon, Namangan, Xo'jandda to'qib tayyorlangan shoyi, shoyiga o'hshab to'qilgan gulbara, beqasam, olachalar Sharqiy Turkiston shaharlarida ancha haridorgir edi[6]. Uyg'urlarda tomonidan to'qib tayyorlangan matolarning asosiy qismi paxtadan bo'lgan. Qashqarda esa, parcha va atlas kabi qimmatbaho matolar ko'proq to'qib, savdo qilingan. Ayollar uchun mo'ljallangan bayram liboslarini Xo'tan, Andijon, Marg'ilonda tayyorlangan rang-barang shoyillardan tikish urf bo'lgan[7].

Uyg'ur xalqi an'anaviy kiyimlarida ikki muhim jihat - mato va tikilish uslubi o'ziga xoslikni ifoda etgan. Erkaklar an'anaviy kiyimlarining o'ziga xosligini bezaklari va yoqa tuzilishida ko'rish mumkin. Erkaklar an'anaviy kiyimlarining oldi qismi ochiq va yopiq turlari, yengi keng va uzun, bo'yi esa tizzadan kaltaroq(yoshlarga mos) va tizzadan pastroq(keksa) ko'rinishlarda tikilgan. Bunday erkak ko'ylaklari tasma bilan bezatilib, «tunikanusxa» deb nomlangan. Kiftaki nusxa ko'ylaklar xo'ja, to'ra va saidlar orasida keng tarqalgan bo'lib, «mullacha ko'ylak» nomi bilan ham atalgan[8].

O'rta Osiyo xalqlarining «tunikanusxa» bichimidagi an'anaviy kiyimlari evolyusiyasini tadqiq qilgan O.A.Suxareva: «Farg'ona vodisi, Qirg'iziston, Sharqiy Turkiston va Pomir oldi hududlarini o'z ichiga olgan madaniytarixiy hududda yashovchi xalqlarning kiyimlaridagi tabaqalanish (differensiyalashuv) jarayoni eng avvalo an'anaviy kiyimlar jinsga qarab ajralganligida - erkaklar uchun oldi ochiq holatdagi, xotin-qizlar uchun esa oldi yopiq bichimdagagi ko'ylak paydo bo'lganligida»[9] deb ta'kidlaydi.

Aholi kiyimlarini qiyosiy o'rangan R.Ya.Rassudovanning ta'kidlashicha, XIX asrning oxirlariga kelib, ushbu nusxadagi ko'ylaklar bichimida qator o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlar avvalo ko'ylak bichimi kalta va tor, yelkaning

ko'ndalang kesimi (yoqani) ozroq dumaloqlash-ganida ko'rindi[10].

Transformatsiyaga uchragan kiyimlar avvalo ust va bosh kiyimlar bo'lib, Turkistonning har ikki qismida erkaklarning asosiy ommalashgan kiyimi «yaktak» (yextak) hisoblangan. Ayni davorda yaktak barcha aholining asosiy ustki kiyimi bo'lib, oq va ochroq rangdagi bo'z yoki surp matolardan tikilgan. Etnolog olim U.Abdullaevning ta'kidlashicha, XX asr boshlarida yaktakning old qismini uchburchak shaklda ohib, beliga belbog' bog'lash rusum bo'ldi. Bu paytda asosan musulmon aholi uchun yaktak erkaklarning ichki kiyimi vazifasini ham o'tagan. Erkaklarning engil ust kiyimlari ichida «qozoqi yoqa», «no'g'ay yoqa» nuxsalar ham paydo bo'ladi. Mazkur ko'rinishdagi ko'ylaklar dastlab qozoq va tatarlarda urf bo'lib, keyinchalik esa yonma-yon yashovchi mahalliy (asosan turkiy) xalqlar, xususan uyg'ular orasida ham tarqalgan[11].

Ayol va qizlar ko'ylaklari, asosan, yoshi va ijtimoiy holatiga qarab tikilib tayyorlangan. Ular bir-biridan bichimi jihatidan kam farq qilgan. Odatda, uyg'ur ayollar ko'ylaklari uzun bo'limgan. Bu haqida yevropalik sayyoh Robert Sha ham o'z sayyohatlarida qashqarlik ayollarning ko'ylaklari juda uzun emas, shalvari(lozimi) ozroq ko'rini turgan deb, o'zining sayyohat esdaliklarida qayd etadi[12].

Bu fikrlarni uyg'ur milliy kiyimlarini maxsus tadqiq etib, tavsiflagan uyg'ur olimi Islomjon Qosimiy ham tasdiqlab, qashqarlik ayollar ko'yagli kaltaroq bo'lib, shalvorlari tasmali bo'lib, ko'rini turgan[13.39] deb ta'kidlaydi. Ko'proq ayollar kiyimlariga e'tibor qaratgan tadqiqotchi hududiy emas, balki umumiy tafsif va izoh bergan.

Umuman, ayollar ko'ylaklari rangi va matosi bilan bir-biridan ajralib turgan. Masalan, keksa uyg'ur ayollar yorqin rangli va guldor bo'limgan, oddiy bo'z yoki paxta matosidan tikilgan «to'g'ri ko'ylak», yosh qiz-juvonlar orasida esa yoqani keng va ko'rkmak «qaytarma yoqa» urf bo'lgan. Keyinchalik mahalliy xotin-qizlarning zamonaviy rusumdag'i burmacha ko'ylagi tarqaldi. XX asrning 60-yillarida xotin-qizlar kiyimlarida bir qadar modernizatsiya jarayoni kechadi, natijada ayollar orasida «xitoycha ko'ylak» va «yevropacha rusum»dagi ko'ylaklar urfga kiradi[14]. Umuman, turg'un o'rnashgan uyg'ur aholisi milliy kiyim-kechaklari mahalliy an'analar ta'sirida o'zgarishga uchray boshlangan. Bu uyg'ur ayollarining bosh kiyimlari, chopon va kamzullarida yanada yaqqol seziladi. Ko'ylak ustidan kamzul yoki nimcha kiyish ko'plab xalqlarga xos bo'lgan. Uyg'ur ayollar orasida «qashqarcha tovar»dan kamzul ancha ommaviy edi. Albatta, kamzullarning bir qancha turlari bo'lib - paxtalik kamzul, avra kamzul, baxmal kamzullar mavsumga qarab kiyilgan. Kamzullar kimxob, duxoba, tovor kabi matolardan tikilib, unga izma-tugma qadalgan. Uyg'urcha kamzullarni tugma va tasmasi yonboshdan qadalgan, keyinchalik bu rusumdan qoldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, hududda hunarmandchilikning, ayniqsa to'quvchilik va tikuvchilikning rivojlanishi, uning etnoslar va madaniyatlararo ta'siri kiyim-kechaklarda ko'proq namoyon bo'ldi.

An'anaviy kiyimlar orasida to'n va chopon barcha turkiy xalqlarga xosdir. Chopon qadimiy kiyim bo'lib, uni ayollar ham kiyishgan. Uning bezakli va tasmalilari, bezaksiz, tugmasizlari ham bor. Qashqarliklar choponlarining ko'krak qismiga naqsh bezak yoki tasma qo'shib tikilgan. G'uljada tikilgan choponlar ham o'zining bezaklari bilan boshqalardan ajralib turardi. Sayohatchi olim N. M. Prejevalskiy, qashqarlik ayollar mavsumga qarab ikkitagacha chopon kiyaganiga, guvoh bo'lganini yozadi[15]. Ustki kiyim hisoblangan chopon uzun bo'lib, odatda ayollar chopon ustidan belbog' bog'lamaydi. Ayollar choponlari huddi kamzul kabi qimmatbaho matodan yoki «qashqarcha tovar»dan tikilgan.

Mavsumiy qishki kiyim hisoblangan to'nning ham bir qancha turlari mavjud. Avra to'n, qora to'n nuxsalari ommalashgan edi. Ko'pincha to'n iborasi o'rniда chopon iborasi ishlataladi. Farg'ona vodiysida yashayotgan qashqar xo'jalari hamisha qora to'n kiyigan va bu kiyim ularning jamiyatdagi mavqeini ham ifodalagan[16]. Erkaklarning belbog'i salobat va jamiyatdagi mavqeni ifodalash bilan birga katmon vazifasini ham bajargan. Shu sabab badavlat uyg'urlar ikki - uchtagacha belbog' bog'laganlar.

Bosh kiyim, avvalo, xalqlarning yuksak madaniyati dan boxabar etuvchi jihat hisoblanadi. Bosh kiyimlari ham mavsumga, jins va yoshga, hamda ijtimoiy mavqeiga qarab kiyilgan. Keng tarqalgan do'ppi barcha yosh va jinsdagilar uchun asosiy bosh kiyimi hisoblangan. Erkaklar do'ppilari birlaridan tuzilishi, tikelishi, gul-naqshlari bilan farq qilib, Qashqar va G'ulja do'ppi nuxsalari Farg'ona vodiysida tayyorlangan do'ppilariga deyarli o'xshash bo'lgan. Toshkent, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon do'ppi nuxsalari g'arbiy va sharqiy mintaqalardagi barcha etnik jamoalarda keng tarqalgan bo'lib, uyg'urlar orasida ilgaridan vodiya tayyorlangan do'ppilar mashhur edi[17]. Qashqarda erkak do'ppilar oq, qora, to'q ko'k rangdagi las, baxmal matolalaridan tikilgan. Tikilish va tayyorlash uslubiga ko'ra, vodiya tayyorlangan do'ppilar amalda bir xil bo'lgan. Sharqiy turkistonlik uyg'urlar bayram liboslari ichida «poshsho do'ppi» deb atalgan bosh kiyim alohida o'rin egallaydi. Bunday do'ppilar vodiya tayyorlangan do'ppilardan tepe qismining baland va kengligi bilan ajralib turgan. Hatto, Farg'onada yashab turgan uyg'urlar o'tgan asrning 60-yillarigacha «poshsho do'ppi»larini qadr lab kiyishgan. Ba'zan erkaklarida ham to'q ko'k rangdagi baxmal yoki guldor, dumaloq shakldagi nuxsalari uchraydi[18]. Qashqar va Farg'ona vodiysida do'ppilarga bodom yoki qalampir nuxsasi oq rangdagi ipak bilan tikilgan. Xuddi shunday ko'rinishdagi oq ipak bilan tikilgan do'ppilarni Xo'tan va Qashqar erkaklari kiyishgan[19.17]. Shunga o'xshash «tus do'ppi»(chust

do'ppi)lar Turkistonning har ikki mintaqasida urfga kirgan edi[20.146]. Bundan tashqari, chovvador qирг'изларнинг оқигиз qalpoqlarini, yana ko'plab teridan tayyorlangan bosh kiyimlarini XX asrning boshlarida qирг'излар bilan aralash yashovchi uyg'urlarida ham uchragan.

Qishki issiq bosh kiyim «bo'rak» ancha qadimiy hisoblanadi. «Devoni lug'otit turk» asarida «bo'rak - qalpoq bosh kiyim» ekanligi aytildi[21]. Turkiy xalqlar orasidagi mashhur “Boshsiz - bo'rak bo'lmas, totsiz - turk bo'lmas” maqoli bo'rak(bosh kiyim)ning turkiylar uchun qadrli ekanini ifodalagan. Bo'rknинг ikki xili - do'ppisimon va telpak ko'rinishdagi nuxsalari bo'lib, uni tikishda hayvon terisi va mo'ynasi ishlatalgan[22].

Xotin-qizlar orasida ayni «paranji» atamasi mayjud bo'lmasada, musulmonlarga xos bo'lмаган yuzini ochib yurgan deb aytish ham to'g'ri emas. Ular chimmatta o'xshagan «oq pija» bilan yuzini yopgan. Faqat yuzni to'sgan «pija»lar paranji-chachvonga qisman o'xshab, oq rangli shol ro'molni ham eslatadi. Tadqiqotchi L.A.Chivirning qayd etishicha, Qashqarda «oypija», «oqpija», Yorkent va Oqsuda «lachak», Turfonda «chimbat» deb nomlangan yopinchiq urf bo'lsa, G'ulja, Kuchor, Xami kabi joylarda ayollar yuzini yopishi majbur bo'lмаган. Keyinroq, Farg'ona vodiysiغا ko'chib o'tar ekanlar mahalliy musulmon aholi, asosan, o'zbeklar ta'siriga tushgach paranji-chimmat yopinishni odat qildilar.

Xulosa va takliflar. Qisqacha aytganda, uyg'ur va o'zbek aholi kiyim-kechaklari orasida farq katta emas. Kiyimlar va matolarning uyg'urcha nomlarining o'zbekchadan katta farq qilmaganligi, masalan, oypija(paranji), chumbat (chimmat), kimxbob, shoyi, do'ppi deb nomlanganligi ham ularning o'zagi bir ekanligini bildiradi.

Xullas, uyg'ur aholining milliy kiyim-boshlarida hududiy xususiyatlari ko'proq kuzatilgan. Yangi ijtimoiy – ma'naviy mubit, turli millatlar ta'sirida moddiy madaniyatning ushbu yo'nalishida transformatsiya jarayoni jadal kechdi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев У. Фаргона водийсида этнослараро жараёнлар. –Тошкент, Янги аср авлоди, 2005.
2. Губаева С. С. Губаева С. С. Население Ферганской долины в конце XIX – начале XX в (Этнокультурные процессы). – Ташкент: Фан, 1991.
3. Чырыр Л. А. Об изучение художественных ремесел уйгуров// Восточный Туркестан и Среднея Азия. – М: Наука, 1984.
4. Матбобоев Б. Қадимги Фаргона ахолисининг кийим-бошлари тарихига доир (археологик материаллар асосида) // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. –Тошкент, 2004.
5. Сухарева О.А. Опыт анализа покроев традиционной «туникаобразной» среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции // Костюм народов Средней Азии.-М: Наука,1979.
6. Рассудова Р. Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско-Ташкентского региона (XIX–XX вв) //Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука,1989.
7. Махова Е. И. Некоторые элементы киргизского национального костюма // Костюм народов Средней Азии. – М.:Наука,1979.
8. Валихонов Ч. Ч. Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата: АН КазССР, 1962.
9. Чырыр Л. А. Уйгуры Восточного Туркестана и соседние народы в конце XIX– началье XX в. – М.:1990.
10. Рассудова Р. Я. Сравнительная характеристика мужской одежды населения Ферганско-Ташкентского региона (XIX–XX вв) //Традиционная одежда народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука,1989.
11. Ша Р. Очерки Верхней Татарии, Яркенда и Кашига. – СПб., 1872.
12. Касимий И. Уйгурский национальный костюм. –Алматы: Наш мир, 1996.
13. Пржевальский Н. М. Этнографическое изучение уйгуров в 70–80–х годах XIX века // Этнографическое изучение уйгуров Восточного Туркестана русскими путешественниками второй половины XIX века. – Алма–Ата, 1975.
14. Захарова И. В. Материальная культура уйгуров Советского Союза / СЭС. Вып. II. – М: 1959.
15. Захарова И. В. Материальная культура уйгуров Советского Союза... – С. 275–276.
16. Каримова Р. У. Традиционные художественные ремесла и промыслы уйгуров. – Алматы: Дайк-Преес, 2005.
17. Каримова Р. Традиционные художественные ремесла и промыслы уйгуров... – С. 146.
18. Маҳмуд Қошғарий. Девони луготит турк. – Тошкент: 1960. Т. 1.



Yoo In YOUNG,

SamDU Arxeologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi,

E-mail:juanjoy@hanmail.net

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent B.Islomov taqrizi asosida

ANCIENT KOREAN AMBASSADORS IN AFROSIYAB MURALS

Annotation

Afrasiyab is the northern edge of Samarkand, the historical city of the ancient Sughd Kingdom, and the murals on the site of the palace there are called "Afrasiyab Murals". Murals have been known since 1965. Ambassadors from Korea in the early Middle Ages are also depicted in wall paintings in Afrasiab. On the four walls of the living room, which is about 11 square meters and 2 meters high, there are very skillfully depicted pictures of the history of Sughd in the middle of the 7th century. The article talks about the aspects of Afrosiyab wall paintings related to the history of Korea.

Key words: Afrasiab, early Middle Ages, Sughd, China, Goguryeo, Turks, embassy relations, mural paintings, trade relations.

AFROSIYOB DEVORIY SURATLARIDAGI QADIMGI KOREYA ELCHILARI

Annotatsiya

Afrosiyob Samarqandning shimoliy chekkasi, qadimiy Sug'd podsholining tarixiy shahri va u yerdagi saroy o'mridagi devoriy suratlar "Afrosiyob devoriy suratlari" deb ataladi. Devoriy suratlar 1965 yildan fanga ma'lum. Afrosiyobdag'i devoriy suratlarda ilk o'rta asrlarda Koreyadan kelgan elchilar ham tasvirlangan. Taxminan 11 kvadrat metr va balandligi 2 metr bo'lgan yashash xonasining to'rtta devorida VII-asr o'talaridagi Sug'd tarixidan hikoya qiluvchi suratlar juda mohirlik bilan tasvirlangan. Maqolada Afrosiyob devoriy suratlarining Koreya tarixi bilan bog'liq jihatlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Afrosiyob, ilk o'rta asrlar, Sug'd, Xitoy, Koguryo, Turklar, elchilik munosabatlari, devoriy suratlar, savdo munosabatlari.

ДРЕВНИЕ КОРЕЙСКИЕ ПОСЛЫ В СТЕННОЙ ЖИВОПИСЕ АФРАСИАБА

Аннотация

Афрасиаб – северная окраина Самарканда, исторического города древнего Согдийского царства, и фрески на месте дворца называются «Живописи Афрасиаба». Стенные живописи известны науке с 1965 года. Послы из Кореи в раннем средневековье также изображены на настенных росписях Афрасиаба. На четырех стенах гостиной площадью около 11 квадратных метров и высотой 2 метра очень искусно изображены картины из истории Согде середины VII века. В статье говорится об аспектах настенной росписи Афросиаба, связанных с историей Кореи.

Ключевые слова: Афросиаб, раннее средневековье, Согд, Китай, Когурё, тюрки, посольские отношения, фрески, торговые связи.

Kirish. O'tgan asrning 1965 yilda O'zbekiston xalqlarining moddiy madaniyati tarixini o'rganishda katta voqyea yuz berdi. Samarqanddagi Afrosiyob manzilgohida arxeologlar arablardan oldingi davrga (eramizning VII asriga) oid devoriy rasmlari aks ettirilgan saroy majmuasini topdilar. Syujetli hikoya qilgувчи polixrom tasviriy suratlар Samarqand hukmdori saroyining katta kvadrat zalining to'rt devorini ham bezatgan. Ushbu kashfiyat arxeologiya fanida shov-shuvga aylandi, darhol jahon hamjamiatining e'tiborini tortdi.

1975-yilda L.I.Albaumning qazishmalari haqidagi hisoboti rus tilida yozilib, chop etilgan. Ushbu hisobot bilan yapon olimlari ham tanishdi va bir necha yil o'tgach, qazishma hisobotining yapon tilidagi tarjimasi nashr etildi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy izlanishlar natijasida bu devoriy suratda nafaqat sug'dlar, balki sharqiy Osiyoliklar, jumladan, xitoylar, hindlar va koreyslar ham tasvirlanganligi arxeolog, sharq tarixi va Ipak yo'li sohasida izlanishlar olib boruvchi tadqiqotchilarni hayratda qoldirdi.

Bu jarayondan so'ng yapon arxeologi Vako Anajava koreys arxeologi, professor Kim Von Yongga (o'sha paytda Seul Milliy universiteti) bu yerdagi qadimgi koreyslar tasviri paydo bo'lganligi va qimmatli tarixiy mazmunni saqlab qolganligi to'g'risidagi ma'lumotni yubordi, hamda shu bilan koreys olimlari ham bu suratlarga qiziqa boshladi. Bundan

tashqari, professor Kim ushbu mavzu bo'yicha maqola chop etdi (1976 yil iyul) va shundan keyingina Koreya akademik dunyosi ushbu ma'lumotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi [3].

Koreya va O'rta Osiyo xalqlari tarixinining o'zaro aloqadorligi misalasi haqida so'z yuritganda Xitoy faktorini inkor etib bo'lmaydi [2]. Xitoyda topilgan Tan sulolasidan oldingi va keyingi davrdagi Sug'd san'at asarlari orasida kumushdan yasalgan hunarmandchilik mahsulotlari mashhur. Bular ellistik uslub dizayni va texnikasini aks ettiradi. Ko'rinish turibdiki, bu uslub Xitoy hunarmandchiligidagi paydo bo'ladigan mayoq shaklidagi shishaga o'xshaydi. Bundan tashqari, sosoniy forslarga mansub naqshli (aylanada uzluksiz munchoq naqshlar texnikasi) sug'diyalar tomonidan Olti sulola davrida kiritilgan va Tan sulolasasi davrida keng ommalashgan. Devoriy suratlarni chizish sohasida "Joichulsu" uslubi ajralib turadi.

Bu VI-asr o'talarida Markaziy tekislik san'at olamida faol bo'lgan so'g'dlik rassom Jo Jung-dal tomonidan ko'chirilgan (550-577) va G'arbiy Osiyoga xos uslubni ochib beradi. Eng muhimmi, VIII asrning o'talarida, Tan sulolasining gullab-yashnagan davrida, so'g'd guruhlari markaziy hududlarga ko'proq ko'chib o'tganligi sababli, Changanda "Hupung" deb ataladigan sug'd uslubini mashhur bo'ldi [3].

Shoir Li Bekning (kiyjín) "Kichik yil she'riyati" o'sha davr ijtimoiy hayotini yaxshi ifodalaydi. Aytishlaricha, "Hohee" Changandagi boy tabaqaning bolalari tez-tez boradigan ko'ngilochor joydagi turmush tarzini ifodalaydi.

Xan sulolasining ilk hukmronlik davrida Xitoy Sug'd hududining mavjudligidan xabar topgan. Xitoyliklar g'arbda qator rivojlangan hududlar borligi haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi. O'sha davrda Xitoyning shimalida hunlar, yuechjilar, usunlar, duxxular mavjud bo'lib, ular orasida hunlar kuchayib, yuechjilarni g'arba haydab yuborishgan. Qolaversa, ular Xitoga kirib borar ekan, Xitoy imperatorlari bu shafqatsiz jangovar kuchni to'xtatish uchun har qanday chora-tadbirlarni ko'rishdan boshqa chorasi qolmagan vaziyatga duch keldilar. Imperator imperator Vu (U) strategiya ishlab chiqib, g'arba qoqgan Yueji bilan ittifoq qilib, sharq va g'arbdan hunlarga hujum qilsa, muvaffaqiyatga erishaman, deb o'yadi.

Shu maqsadda miloddan avvalgi 139 yilda Chjan Syan boshchiligidagi rasmii delegatsiya (taxminan 100 kishi) g'arba jo'natilgan. Ko'p mashaqqatlarni boshidan kechirib, Dovonga borgan, ammo muzokalarlar natija bermagan va u eramizdan avvalgi 126-yilda ortga (ikki kishi hamrohligida) qaytib kelgan. Yo'lda u hunlar tomonidan asirga olinadi va 11 yil hibsga olinadi va asirlikdan chiqqach bir yil davomida o'z manzili Devolji (Dovon) va qo'shni Deha (Baqtriya)da qoladi. Uning sayohat yo'lidan ko'rinish turibdiki, u Sug'd viloyatiga tashrif buyurgan birinchi xitoylik bo'ldi.

Garchi imperator Vuning niyati amalga oshmagan bo'lsa-da, tarixchi Chjan Tsyanning G'arba sayohatini "erni buzib tashlash" (bo'shatish) deb ta'riflagan bo'lsa-da, bu nafaqat Ipak yo'li orqali almashuvga yo'l ochdi, balki G'arb haqida ko'plab amaliy ma'lumotlarga ham ega bo'ldi. Shuningdek, eramizning 97-yilida u general Ban Chaoga bo'ysunuvchi Kam Yongni (Dejinga (Rim) to'g'ridan-to'g'ri savdo bilan shug'ullanish uchun yubordi, lekin u Dejinga yetib bormadi. Lekin u yetib borgan hududi Suriya va O'rta dengizning sharqiy qismi o'sha davrda xitoyliklar yetib borgan eng g'arbiy nuqta bo'lib, bu orqali u qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lgan [3].

Murakkab tarixiy vaziyatda Xitoy Sug'd podshosi Varxuman taxtga keladi (650-655). Devoriy suratlari chizilgan xona kvadrat, eshikli devor esa sharqiy devordir. Darvoza qarshisida g'arbiy devor joylashgan bo'lib, unda har bir mamlakat elchilarini tasvirlangan va devoriy suratlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Darvozadan kirishda chap tomonagi janubiy devorda an'anaviy marosim tasviri, o'ngdagisi shimoliy devorda qayiqda kelayotgan xitoy malikasi, ovchi kabilalar tasvirlangan [7].

Etnologik nuqtai nazardan qaraganda, Afrosiyob devoriy suratlari aran'anaviy Nauruz (kani) marosimining keng ko'lamli timsoli sifatida ko'rish mumkin. Afrosiyob devoriy suratlari Buxoro va Panjkentdag'i, boshqa devoriy shaharlardagi suratlardan farqi shundaki, ularda Sug'dning siyosiy va diplomatik aloqlarini aks ettirilgan. Bu erda biz asosiy mavzuni ifodalovchi g'arbiy devorga e'tibor qaratamiz.

G'arbiy devorni katta ahamiyatga ega deb aytish mumkin, xonaga kiradigan odamlar to'g'ridan-to'g'ri unga qaraydilar. Bu an'ana Sug'd qurilish inshootlarida - shaxsiy uylarda yoki qirol saroylarida keng tarqalgan. Ushbu devorning muhim yuqori qismi qazish ishlardan oldin ham shikastlangan va yo'q bo'lib ketgan. Ammo bugungi kunda qolgan odamlar tasviri 42 tani tashkil etadi. Ikki koreyalik elchi ham shu guruhga mansub bo'lib, eng o'ng tomonda, pastda joylashgan. Albaumning hisobotida bu suratlari g'arbiy devordagi 24 va 25 (chapdan boshlab) raqamlariga to'g'ri keladi [6].

G'arbiy devordagi eng muhim tarixiy ma'lumotlar suratlari orasida yozilgan ma'lumotlar o'ta muhim hisoblanadi.

G'arbiy devorning chap ikkinchi qavatidagi ikkinchi figurining (Albaum hisoboti № 27) bosh qismi shikastlangan, uning oq kaftining etagida esa qattiq shikastlangan ikkita baqtriya yozuvni (ikki qator) va 16 qatorli sug'd yozuvni bor. Yozuv o'qilishi mumkin bo'lganligi sababli, u turli ilmiy muammollarni hal qilish uchun dalil bo'ladi.

Bu bitikda Sug'd podshohi Varhumanni sharaflash uchun qo'shni davlatlardan elchilar jo'natilgani, ular Sug'd xudosi, tili va madaniyatiga hurmat bajo keltirganliklari haqida hikoya qilinadi. Bu yerdagi chag'oniyonilar Samarqand va Termiz oralig'iда mavjud bo'lgan kichik xalq bo'lib, Choch bugungi Toshkentdir. Bu ma'lumotlarga asosanib, g'arbiy devordagi rasm shoh Varhumonning qudratini, Samarqand saltanatinning qudratini ko'rsatishga mo'ljallanganligi aniq [2].

G'arbiy devordagi devoriy suratlari figuralarning yo'nalihsiga qarab chap va o'ng guruhlarga bo'linadi. Chap tomonda g'arb elchilar, o'rtada Xitoy elchilar, o'ngda Koreya elchilar. Chap va o'ng guruhlarning ajratilgan yuqori qismida podshoh So'g'd podshosi Varxuman taxtda o'tirgan deb taxmin qilinadi va tepasida Sug'd xudosi tasvirlangan.

Bu erda birinchi navbatda e'tibor qaratishimiz kerak jihat shundaki, mahalliy va xorijdag'i ko'pchilik olimlar ushu devoriy suratda paydo bo'lgan koreyslarni Goguryeo elchisi deb baholaydilar. Qazishmada ishtirok etgan Albaumning o'zi ham o'z hisobotida ushu suratlarda Goguryeo elchilarini tasvirlangan bo'lishi mumkin degan farazni ilgari suradi. Kim Von-Ryonga material yuborgan yaponiyalik Vako Anajavagina emas, balki rossiyalik Boris Marchak va fransiyalik Frans Grene, germaniyalik Markus Mode kabi yevropalik olimlar ham shu fikrni quvvatlaydilar [5].

Ular o'sha davrdagi xalqaro vaziyat va Koreya yarim orolidagi vaziyatni tahlil qilish hamda devoriy suratlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish asosida shunday fikr bildirishgan.

Lekin nega tasvir markazida xitoylar va koreyslar bir-biridan uzoqda joylashgan? Markus Modening fikricha, bu Tan imperatori Taejong (645) davridagi urush tufayli Goguryeo va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuvini aks ettiradi [5]. Imperator Taejong vafotidan keyin (649-yil) Goguryeo Xitoy tomonidan bosim o'tkazmasligi uchun turklar bilan "diplomatik ittifoq" o'rnatish uchun Samarqandga keladi. Keyinchalik, tasvirning o'ng tomonidagi guruhning yuqori qismi hozirda yo'qolgan bo'lsa-da, u yerda turk hukmdori bo'lgan dek uni tiklaydi. Shunday qilib, u suratda Goguryeo xalqining o'ng tomoniga qo'yilgan turk hukmdori uchun sabab qidiradi. Ular ko'chmanchi xalqlarning hukmronlik hokimiyatining timsoli bo'lib, xususan, markaziy bayroqning chap va o'ng tomonida 5 taga bo'lingan 11 bayroq Turk hoqonligining shimoliy va janubiy qabilalarini ifodalaydi. G'arbiy suratda sochlari orqasiga bog'langan odamlar juda ko'p. Xususan, o'ng guruhga mansub figuralarning tanasi yuqori o'ng tomoniga qaragan bo'lib podsho yuqori o'ng tomonda bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Boshqa tomondan, turklar Samarqand va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy qarorlar qabul qilish qudratiga ega bo'lgan deb taxmin qilinadi [3].

Yuqorida ko'rinish turibdiki, VII asr o'rtalarida Afrosiyob devoriy surati chizilgan paytda Sug'd atrofidagi xalqaro vaziyat, jumladan devor markazida tasvirlangan sug'd, turklar, Xitoy, Koreya elchilarini va shu kabilarni aks ettirgan. Suratda tasvirlangan ikkita bosh kiymiga pat qadalgan tasvirlar Goguryeo elchilarini degan xulosaga keltingan [2].

Shu sababli, xalqaro vaziyatni muhokama qilish Goguryeo va uch mamlakat o'rtasidagi munosabatlar muhim masala edi. Afrosiyob devoriy suratlari aks ettirilgan xalqaro vaziyatni tushunish uchun Goguryeo va Tan davlatlari o'rtasidagi munosabatlar tarixiga e'tibor qaratish lozim.

642yil: Goguryeoda Yeon Gaesomun hokimiyatni qo'lga oldi va Tan sulolasiga qarshi qat'iy siyosat yuritdi.

645 yil: Goguryeo va Tan o'zaro urush boshlaydilar.

Yeon Gaesomun, Goguryeodan Sug'dga boradigan yo'lda joylashgan davlat bilan ittifoq tuzadi.

649 yil: Tan imperatori Taizong vafot etdi.

649~54 yil: Goguryeo va Tanning ahvoli, sukunat.

650-55 yil: Sug'd podshosi Varhuman xokimiyatga keldi.

661-62 yil: Goguryeo yana Tan bilan urushga kiradi.

665 yil: Yeon Gaesomun vafot etdi.

Afrosiyob tasvirida ko'rsatilgan Goguryeo elchilarini Yeon Gaesomun tashabbusi bilan jo'natilgan, degan fikrni birinchi bo'lib tadqiqotchi Vako Anajava (1976) ilgari surgan [3].

Afrosiyob devoriy suratlardagi Goguryeo elchilarini masalasida ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan muhim elementlardan biri bu Goguryeo va Sug'd o'rtasidagi munosabatlardir. Adabiyotlarda ikki davlat o'rtasida almashuv deyarli kuzatilmagan bo'lsa-da, so'nggi tadqiqot natijalariga ko'ra, qadimiyan san'at asarlарини тahlil qilib, bu haqda muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Qizig'i shundaki, 357-yilga oid deb hisoblangan Anak 3 maqbarasi devoriy suratda Sug'diyarning an'anaviy raqsi Xoseonmu va Sug'd cholg'u asboblarini chalish foni tasvirlangan. Pyongnamning Jungxva shahrida topilgan mis idishlar Cheonliang sulolasi davrida (314-376) poytaxt Gansu provinsiyasining Muvi shahrida ishlab chiqarilgan bo'lib, Goguryeo bu davrda Gansu mintaqasi bilan keng savdo aloqalarini yo'lga qo'yanligini ko'rsatadi.

Goguryeo devoriy suratlarda Sug'dlar ekanligi taxmin qilingan shaxslarni V-asr o'rtalarida Jangcheon 1 maqbarasida ham ko'rish mumkin. Ular spektakl va maskarad qahramonlari, ot haydovchilar tarzida tasvirlangan. V-asr o'rtalarida aynan podshoh Jangsu davrida (413-491-yillar) Xitoya faoliyat yurituvchi sug'dlar soni ko'payibgina qolmay, balki Goguryoning quadrati ham eng yuqori darajada chiqqan edi. Bu davrda Goguryo shimoliy Xitoyni boshqargan Shimoliy Veyga 44 marta elchi yuborgan va bu muzokalarlar orqali Goguryo g'arbiy mintaqqa, jumladan Sug'd madaniyatni balan ham tanish bo'lgan. Masalan, Ohvebun 4 maqbarasi devoriy suratlardagi figuralarga e'tibor qaratsangiz, ular oldingi davrlarga qaraganda ko'proq uch o'lchamli ifodalarni qo'llashga harakat qilganliklarini ko'rasiz. Yashash xonasidagi devoriy suratlarda olov xudosining kiyimlari tasvirlangan.

ADABIYOTLAR

- Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент. 1975.
- 권영필, 아프라시압 별궁 벽화와 고구려 사절, '실크로드 인사이드. 문명의 충돌과 미술의 화해'(권 영필), 두성출판, 2011.
- 상지대 석좌교수 권 영 필, 중앙아시아의 아프라시압 벽화와 고대한국·중앙아시아 지역의 역사와 문화.
- Étienne de la Vaissière, trans. James Ward, Sogdian Traders. A History Leiden, Brill, 2005.
- Markus Mode, Sogdien und die Herrscher der Welt. Türken, Sasaniden und Chinesen in Historiengemalden des 7. Jahrhundert n. Chr. aus Alt-Samarqand, Frankfurt am Main, Peter Lang, 1993.
- アリバウム, 加藤九祚譯.□古代 サマルカンドの壁画□, 文化出版局, 東京, 1980.
- 김원룡, 사마르칸트 아프라시압 궁전벽화의 사절단, □고고미술□129.130, 고고미술사학회, 1976.



Eshbolta QOBULOV,

*Termez iqtisodiyot va servis universiteti ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, tarix fanlari doktori, professor
E-mail:eshbolta_qabulov@tues.uz*

TerDU professori, t.f.d. S.Tursunov taqrizi asosida

RELIGION IN THE POLITICAL AND SOCIAL LIFE OF AMIR TIMUR STATE

Annotation

Considered one of the most important figures in the history of the middle ages, from the way in which Amir Temur ruled the state, his activities in the military sphere, the processes associated with the economic and social life of the country are also considered important topics not only for researchers, but also for the broad readership. This article explored the direct relationship of the activities of Amir Temur with the religion of Islam, the works of historians who were contemporary with Amir Temur, and the scientific research of researchers of the later period.

Keywords: Muhammad Taragai, Abdulla Kutb masolium, Shaykh Shamsiddin Kulol, Shaykh Said Kulol, Shaykh Zayniddin Abubakr at-Tayabadi.

РЕЛИГИЯ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ ГОСУДАРСТВА АМИРА ТИМУРА

Аннотация

От того, как Амир Тимур, считающийся одной из важнейших фигур в средневековой истории, управлял государством, до его деятельности в военной сфере, процессы, связанные с экономической и социальной жизнью страны, также являются важными темами не только для исследователей, но и для широкого круга читателей. В этой статье была изучена непосредственная связь деятельности Амира Тимура с исламской религией на основе трудов историков, которые были современниками Амира Тимура, и научных исследований исследователей более позднего периода.

Ключевые слова: Мухаммад Тарагай, Абдулла Кутб медресе, Шейх Шамсиддин Кулал, Шейх Сайд Кулал, Шейх Зайниддин Абубакр Ат-тайабади.

AMIR TEMUR DAVLATI SIYOSIY VA IJTIMOIY HAYOTIDA DIN

Annotatsiya

O'rta asrlar tarixidagi eng muhim shaxslardan biri hisoblangan Amir Temurning davlatni qay yo'sinda boshqarganidan tortib, harbiy sohadagi faoliyati, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayoti bilan bog'liq jarayonlar ham nafaqat tadqiqotchilar uchun, balki keng kitobxonlar ommasi uchun ham muhim mavzularidan sanaladi. Ushbu maqolada Amir Temur faoliyatining islom dini bilan bevosita aloqasi, Amir Temur bilan zamondosh bo'lgan tarixchilarning asarlari va keyinga davr tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari asnosida o'rganildi.

Kalit so'zlar: Muhammad Tarag'ay, Abdulla Qutb madrasasi, Shayx Shamsiddin Kulol, Shayx Said Kulol, Shayx Zayniddin Abubakr at-Tayobodiy.

Kirish. O'zbek xalqi tarixidagi birinchi renessans mo'g'ullar istilosini oqibatida tapnazzulga yuz tutdi. Hududda ijod qilgan ilm ahli dunyoning turli tomonlariga bosh olib ketishga majbur bo'lishdi. O'z navbatida davlat siyosiy hayotida muhim o'rinn tutgan islom dini o'z maqomidan butunlay mahrum bo'ldi. XIV asrda kubraviya tariqati shayxlari ta'sirida avval mo'g'ul xoni Qozonxon, so'ngra chig'atoysi Tormasharinning islom dinini qabul qilishi islom dinining mavqeい tiklanganidan dalolat berar edi.

XIV asrning 70-yillarda Amir Temur davlatining vujudga kelishi natijasida mo'g'ullar asoratiga barham berilib, hudud iqtisodiyoti rivoj topib, aholining turmush darajasi yaxshilanib bordi. Bu o'z navbatida siyosiy hayotda islom dinining mavqeini yana tiklash imkonini berdi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Amir Temur shaxs sifatida islom ta'limotiga e'tiqodi baland bo'lgan inson sifatida tarixda ma'lum.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Amir Temur Movarounnahr taxtiga o'tirgandan so'ng, amalga oshirgan muhim ishlardan biri ilm fan rivojiga katta e'tibor bergenligidir. Uning dastlabki farmonlardan biri madrasalar va ularning o'quvchilarini moddiy jihatdan ta'minlab, stipendiyalarini oshirishdir. Muiniddin Natanziy o'zining, "Muntaxab ut – Tavorixi Muiniy" asarida shunday yozadi:

"Imomlar, islom ulamolari, qozilar va ulug' shayxlarga bo'lgan hurmat-e'tiborini shu darajaga yetkazadiki, ilmu-fan ravnaq topib, talabalarning nafaqasi lozim bo'lgan miqdordan ham ko'proq qilib belgilandi. Buning natijasida bir necha ming nafar turli ilmlarni egallagan sohibkamollar, sanoqqa sig'maydigan darajada ko'p qalbi daryo is'tedod egalari uning ulug'vor xonadoni saxovati hadyalari nuridan zamona chehrasidan zohir bo'ldilar" [1].

Ibn Arabshoh yozishicha Temur yoshligida so'fiylarga nisbatan sabr, olijanoblik va ehtirom ko'rsatgani, ular ham o'z navbatida -Tarag'ayga shunday munosabatda bo'lishgan. Amir Temurning dinu islomga bo'lgan munosabati ko'plab din peshvolari tomonidan uning boshqaruv siyosatini qo'llashiga sabab bo'lgan.

Sohibqironning yashash tamoyili "Rosti-rosti" (Haqiqat adolatda)bo'lib, bu so'z o'yib yozilgan uzukni piri Zayniddin Toyobodiy sovg'a qilgan. Amir Temur har gal biron-bir ish yoki harbiy yurishga chiqishdan oldin pirining duosini olgan. Davlat boshqaruvida pirining maslahati bilan to'rt narsaga amal qilgan: "Abulmansur Temur, saltanat ishlardida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni: 1)(o'zing bilan) kenga; 2)(boshqalar bilan) mashvaratu maslahat ayla; 3) hushyorligu mulohazakorlik bilan qat'iy qaror chiqarish; 4) ehtiyyotkor bo'il[2, 13.14].

Ma'lumki Temur va uning vorislari davrida ruhoniylar mulki daxlsiz hisoblangan. Oddiy dunyoviy odam uchun yomon tugaydigan ish "tangri kishisi" uchun murakkablik tug'dirmas edi. Temurning ruhoniylar vakillari bilan bunday munosabatlari, devona Bobo Sangi bilan uchrashuvi diqqatga sazovor. Bu voqeа 1381 yilda Xurosonni zabit etishda ro'y bergan. Andxundda Bobo Sangi hayvon ko'ksidan olingen bir bo'lak go'shtni Temur oldiga tashlaydi. Bu holat "Zafarnoma"da quydigicha bayon qilingan:"Hazrat sohibqiron avji azimat va davlat bilan suvdin o'tub, Andxudqa yetti. Va g'oyat sidq va ixlosdin Bob Sangukim, avliyolardan erdi, tavofig'a bordi. Va Bobo Sangu, jazaba va holatikim, anda bor erdi, bir qo'yning to'shini hazrat qoshig'a tashladi. Ul hazrat / shu kun tutub, to'shini olib dedikim, "Xurosunkim, yer yuzining to'shi turur, bizga Tangri bergusii turur" [3, 80]. Temur buni tangri Xurosonni yer ko'ksidan bir parchani unga uzatayapti, deb e'lon qiladi. Bunday holatdan chiqishning asosiy sababi aniq, dinning obro'-e'tiborini hurmat qilgan Temur, Bobo Sanginni avliyo sanagan uchun, bu holni yaxshii belgi deb e'lon qilgan. Nozik taktik bo'lgan Temur bu vaziyatdan chiroyli foydalangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tarixiylik, xronologik yondashuv, qiyosiy-tahlii kabi tarixiy metodlardan foydalаниldi. Maqolada o'rta asr tarixchilarining bevosita kuzatishlar natijasida bayon etilgan Amir Temurning islam dinini qanchalik uluhlagaligiga doir muhim ma'lumotlar mavjud.

Tahlil va natijalar. Amir Temur Kesh (hозирги Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i (hозирги Yakkabog' tumani)da 1336 yil 9 aprel kuni dunyoga keldi. Uning kindik qoni to'kilgan joy qadimda Xushjuyi obigar, ya'ni Zilot suvli chashma nomi bilan yuritilgan. Mazkur hayotbaxsh chashma suvlari tufayli bu maskan atrofida aholi to'planib, qishloq qad ko'targan, keyinchalik bu joy Xo'ja Ilg'or nomi bilan yuritila boshlagan.

Otasи Tarag'ay No'yon turkiy barlos urug'inинг biyi (boshliq, qosqoql)va yirik mulkdor amirlaridan edi. Hatto Amir Muhammad Tarag'ay Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. U yilda bir marotaba Ili (Elsuvi) daryosi bo'yida chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga taklif etilardi. Beklordan kelib chiqqanliklariga qaramay, Amir Temur otasining ham, bobosi Amir Barquning ham harbiy ishga mayli bo'lмаган. Tarag'aybek taqvodor muslimmon bo'lib, ko'p vaqtini darveshlar bilan birga o'tkazgan. U piri tasavvuf shayxi Shamsiddin Kulolni chuqur ehtirom qilgan. Tarag'ay no'yonning to'rt o'g'li va ikki qizi bor edi: o'g'illar – (Amir) Temur, Suyurg'at mish, Olamshayx, Jo'gi-no'yon; qizlar – Qutlug' Turkon oqa, Shirimbeka oqa [4].

Onasi "poshsha, poshshaxon, sulton og'o" ma'nolarini anglatuvchi Takina Xotun (aslida Tegina, taxm.1318, Buxoro – 1353, Shahrisabz) Buxoro ulamolari peshvosi mavlono sadr ash-shari'a, ya'ni shariat qonunlarini sharhlovchi alloma Ubaydulloh al-Buxoriyning qizidir. Temurbekka ota- onasi va ajdodlaridan alplarga xos pahlavonlik, o'tkir zehn, iste'dod va boshqa irsylar fazilatlar meros tariqasida o'tadi.

Temurbek dastlabki bilimlarini o'z qishlog'dagi mulla Alibek maktabida 5 yoshida ola boshlaydi. 10 yoshida Mulla Alibek maktabidagi barcha kitoblarni o'qib tugatadi va ustozining tavsiyasi bilan Keshdagи Abdulla Qutb madrasasiga o'qishga boradi. Madrasa mudarrisları Temurbekning o'tkir zehnliligini, turkiy tildan tashqari fors tilini tez o'rganganligini, Qur'on oyatlarini ikki-uch o'qishdayoq yod olganligini ko'rib hayron qoladilar. Manbalarda qayd etilishicha, u Qur'on Karimni yod olgan, hadis ilminni chuqur o'rganligi bois imon-e'tiqodli, halol pok inson bo'lib voyaga yetgan. Siyosiy hayotga kirib kelgan Temur din obro'e'tiborini dunyoviy hokimiyatdan ustun qo'ygan. U "oljanob musulmon, olim va darveshlar do'sti edi" [5].

Tarixiy manbalarda Amir Temurning to'rtta piri bo'lganligi qayd etiladi. Uning birinchi piri Shayx Shamsiddin Kulol al-Faxuriydir. Bu ulug' zot Amir Temurning otasi Amir Tarag'ayning ham piri bo'lgan. Uning ismini ham Shayx Shamsiddin Kulol qo'ygan. Temur otasining do'sti, naqshbandiya tariqatining tanqli vakili shayx Shamsiddin Kulol bilan bo'lgan voqeа tarixchilarga ma'lum. O'z muridlari davrasida zikr tushirayotgan shayx huzuriga kirib kelgan yosh Temur uning tugashini sabr ila kutib turadi. Shayx va atrofidagi muridlari uning xulqiga baho berib, duo qilishadiki, buni keyinchalik bo'lajak jahongir go'yo o'z muvaffaqiyatlarining sabablaridan biri deb hisoblangan emish [6].

Amir Temurning ikkinchi piri Sayid Amir Kuloldir. U 1227 yilda Buxoro yaqinidagi Suxoriy qishlog'ida tavallud topgan. Asli ismi Sayid Amir Kalon as-Suxoriy bo'lib, kulolchilik va paxsa urish bilan shug'ullangani uchun Kulol nomi bilan mashhurdir. Ul zot "Silsilai Sharif" bo'yicha o'n beshinchi piri murshid hisoblanadi. "Silsilai Sharif" bo'yicha o'n to'rtinchi piri murshid sanalgan Bobo Samosiydan ta'lim olgan. Bobo Samosiy Buxoroda xojaqon tarikatini Abdulkholiq G'ijduvoniyan keyin davom ettirgan ulug' zot sanaladi. Naqshbandiya tariqatining asoschisi sanalmish, Bahouddin Naqshband zikr talqini va odobini Sayid Amir Kuloldan olgan. Naq qilishlaricha Shayx Sayid Amir Kulol Temurga yetti kulcha uzatib shunday so'zlarni aytgan ekanlar: " Keshga borg'oningda ushbu kulchalarni har biridan bir tishlamdan yeb, qolg'onini saqlab qo'yg'il, kelajakda dunyoning yetti iqlimi seniku bo'lg'ay!" [7].

Makkai Mukarramaning ulug'laridan ya'ni Ka'ba xojasi bilan belgilangan vaqflarning Xurosondag'i noibi bo'lgan Shayx Sayid Baraka Amir Temurning uchinchi piri sanaladi. U 1324-1404 yillarda yashagan. Sohibqiron hokimiyat uchun amir Husayn bilan kurash olib borayotgan bir pallada 1370 yilda Shayx Sayid Baraka Termiz yaqinida uchrashib, unga nog'ora va bayroqni taqdim etadi. Amir Temur bu tuhalarni islam yo'lidiagi bo'lajak zafarlarning muqaddimasi deb bilgan. Mana shundan so'ng Shayx Sayid Barakani pir tutgan, uning bilan birgalikda barcha g'alabalarining ilhomchisi sifatida qaraganini keksa tarix ma'lumot beradi. 1404 yilda Shayx Sayid Baraka o'limining Amir Temurga ta'siri quydigicha bayon etiladi: "...Qorabog'da ulug' voqi'alardan biri bu bo'ladikim, Sayyid Barakaga/marazi voqi' bo'lub, har nechakim tabiblar muolaja qildilar, muvofig' bo'lindi. Oqibat: Irja u ila Rabbiki raziyattan marziyatanni (Qur'on. Fajr surasi 28 oyat)qabul qilib, bu saroyi fonyidan olami boqiyg'a mutavajjih bo'ldi. Hazrat sohibqiron bu voqi'a jihatidan asru mutvalam bo'lib, yig'ladi. Hukm bo'ldi: "Sayyidning so'ngakimi Andxudg'a eltilib, amonot qo'ysunlar" [3].

1405 yil Amir Temur vafot etgach, "Hazrat sohibqironi poke'tiqodqakim, asru ixlos va sidq hazrat Risolat, soll Allahu, alayhi va sallamning avlodig'a bor erdi, doim xotirida ul erdikim, o'lgondin so'ng Sayyid Baraka alayhir rahmat var rizvonning oyog'i sori bo'lg'ay. Necha kundin so'ng Sayyidi mushori ilayhining muborak so'ngagikim, Andaxudda amonat qo'yib erdilar, alarni kelturub ul gumbazkim, sohibqironning xoli xatti bukun uchun yasab erdi, kelturub dafn qildilar. Va ul / hazratni nechukkim niyat qilib erdi, Sayyid mushori ilayhining ayog'i sari ko'mdilar" [3].

Payg'ambar avlodlariga doimo mehr-muhabbat hislarini tuygan jahongir guyo uni Sayid Baraka qabri etagiga quyish istagini bildirgan. Temur vafotidan keyin Sayid Baraka qabri Andxoydan Samarqandga ko'chirilgan, ikkovlan bir maqbarada Temurni o'z istagiga binoan, Sayyidning poyi tupperg'iga qo'yishgan [8].

Amir Temurning to'rtinchi piri Shayx Zayniddin Abubakr at-Tayobiyidir. Ul zot 1291 yilda Hirotning

Toyobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Fasix Havofiyning “Mujmali Fasixiy”asarida yozilishicha Amir Temur shayxulislom bilan 1381 yilda Harirud vodiyisida uchrashadi. Sohibqiron Xurosonga yurishida Tayobod qishlog‘iga yo‘li tushadi. Amir Temur qaysi yurtga borsa, o‘scha yerdagi ulug‘ insonlarni yoniga chorlab hamsuhbat qilishni unutmagan. Toyobod qishlog‘ida mashhur shayx borligini eshitib uni huzuriga chorlaydi. Ammo shayx Temurda uning ishi yo‘qilgini aytgandan so‘ng, lashkarboshilardan birini uning huzuriga yuboradi. Bu ham natija bermagach, piri komil oldiga o‘zi boradi. Shayx uni kutib oladi va yelkasiga qo‘lini qo‘yadi. Jismonan baquvvat bo‘lgan Temur ham, shayxning kuchiga tan berib shunday degan:”Agar shayx yana bir zamon qo‘lini yelkamdan olmaganida edi, men go‘yoki osmon ustimga tushib, og‘irlik tagida qolib pachoq bo‘layozganday edim”. Shundan so‘ng shayx uni uyiga taklif qilib, suhbatlashadi, pand-nasihat qiladi [3].

Ulug‘ hukmdor pirining maslahatlariga umrbod amal qildi va o‘z siyosatini amalga oshirishda, davlat ishlaringin to‘qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan ulushi esa, qilich bilan bajo keltirganligi buning isbotidir. Amir Temurning mamlakat boshqaruvidagi eng qimmatli shiorlaridan biri ”Davlat kufr bilan bardavom bo‘lishi mumkin, ammo zulm bor joyda tanazzul muqarrardir”, bu ifodaning asl muallifi Abu Bakr Tayobodiydir [9].

Qisqasi, Amir Temurning pirlariga bo‘lgan munosabatini Ibn Arabshoh sohibqiron tilidan quyidagicha bayon qiladi: ”Qanchadan-qancha mamlakatlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsam, qancha o‘lkalarни fath etgan bo‘lsam, barchasi shayx Shamsiddin Kulolning vositasi bilan, Amir Kulolning yordami va shayx Zayniddin Abu Bakrning homiyligi tufaylidir. Sayyid Barakaning yordami tegmasdan birorta g‘alabaga erishmaganman”

Ma’lumki, o‘rtta asr sharoitida din ijtimoiy tashkilot vazifasini o‘tagan. Chunki ruhoniy shaxs va so‘fiylik tariqatlari vakillari faoliyati jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlanishning nozik va amaldagi shakli bo‘lgan. Tarixiy manbalarda Temurning diniy safdoshlaridan aka-uka sayidlari Abul Ma‘aliy va Ali Akbar nomlari eslatib o‘tilgan. Ular xudovanzoda unvoni bilan atalib, Termizga ega qilishgan. Termiz XV asrga qadar yirik diniy markazlardan biri sanalgan [6].

1371 yilda Temurga qarshi uyuşhtirilgan fitnada Abul Ma‘aliy nomi eslatiladi. Temur sayidlarda bo‘lmish Abul Ma‘aliy nafaqat qatl qilmagan, balki ma’lum bir vaqt o‘tgach kechirib yuborgan. Yoki 1365 yilda Samarqanddag‘i sarbadorlar qo‘zg‘olonining yetakchilaridan bo‘lmish madrasa tolibi Mavlozodani sarbadorlar harakatida xasaniya so‘fiylik izdoshlarining talabi va xalq ommasi orasidagi o‘zining xalqchillik pozitsiyasiga munosabatini bildirish uchun uni avf etgan[10].

Amir Temur ma’lum vaqt o‘z yoniga ruhoniylarni muloqatga chorlab turgan. Masalan, 1403-1404 yil qishida Movarounnahr-Kesh, Samarqand, Buxoro, Termiz va boshqa joylardan mo‘tabar zotlarni yig‘gan. Bu yerda Xovand zodagoni Termiziyy, Samarqandlik shayx ul-islam Xoja Abd-al-Avval, Xoja Isom-ad-Din, va keshlik shayx ul –islom farzandlari Abu al-Hamiya va ar-Rahmon va bundan tashqari buxorolik shayxlar qatnashgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, Temur davlat rahbari sifatida diniy omil ahamiyati va kuchiga munosib baho bergani holda, mamlakatning siyosi, ijtimoiy hayotida undan oqilonaga foydalana olgan. Islom dini ulamolariga katta hurmat-ehtirom ko‘rsatib xalqqa namuna bo‘lgan.

ADABIYOTLAR

1. Муиниддин Натанзий. Мунтакаб ут-Таворихи Муиний. -Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.28.
2. Темур тузуклари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.13-14.
3. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Б.80.
4. Ҳаким Сатторий. Олтин силсила. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б.24-25.
5. Бартольд В.В. Улугбек и его время.- Записки Российской Академии наук, Серия VIII, Том XIII. -М., 1964. - C.39.
6. Темур ва Улугбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. – Б. 107.
7. Кичиков Х., Файзуллаева М. Пирлари кўллаган Соҳибқирон./ Мозийдан садо, 2006 йил, 20 апрел.
8. Бартольд В.В. О погребении Тимура// Соч., Т.2., Ч.2, с.446.
9. Темурийлар даврида дин ва давлатнинг алоқаси, - Б. 103.
10. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимурадах. – Ленинград, 1933. – С.14.



Obidjon MADAMINOV,

Urganch davlat universiteti "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: obidjonzoirjonovich@gmail.com

UrDU professori, DSc U.Abdullayev taqrizi asosida

ECONOMIC, POLITICAL AND CULTURAL-EDUCATIONAL ASPECTS OF FORMATION OF STATE IMAGE IN THE MODERN WORLD

Annotation

Reliance on one's image is typical for every profession today. We go to this doctor because his medicine is known. We choose this political leader because we see in him the power to solve our problems. Thus, the profession of "image maker" is gradually gaining more and more importance. It should be noted that imageology has not yet been formed as a separate science; it remains a scientific direction between science and art. When analyzed by researchers based on research, it (imageology) can be recognized as one or another special data bank used to increase its authority.

The article analyzes issues of economic, political, cultural and educational aspects of forming the image of the state.

Key words: state image, imageology, image maker, international image.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ, ПОЛИТИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ИМИДЖА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Аннотация

Опора на свой имидж сегодня характерна для каждой профессии. Мы ходим к этому врачу, потому что его лекарство известно. Мы выбираем этого политического лидера, потому что видим в нем силу решить наши проблемы. Таким образом, профессия «имиджмейкер» постепенно приобретает все большее значение. Следует отметить, что до сих пор имиджология не сформировалась как отдельная наука, она остается научным направлением между наукой и искусством. При анализе исследователями на основе исследований ее (имиджология) можно признать тем или иным специальным банком данных, используемым с целью повышения своего авторитета.

В статье анализируются вопросы экономического, политического и культурно-просветительского аспектов формирования имиджа государства.

Ключевые слова: государственный имидж, имиджология, имиджмейкер, международный имидж.

ZAMONAVIY DUNYODA DAVLATNING IMIJINI SHAKLLANTIRISHNING IQTISODIY, SIYOSIY VA MADANIY MA'RIFIY ASPEKTLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda o'z imijiga tayanish har bir kasbga xosdir. Biz aynan shu siyosiy liderni saylaymizki, chunki uning timsolida muammolarimizni xal qilivchi kuchni ko'ramiz. Shunday qilib, "imijmeyker" kasbi asta-sekinlik bilan ahamiyatlari bo'lib bormoqda. Shuniyam ta'kidlash kerakki, hozirgacha imijelogiya alohida fan bo'lib shakllanmagan, u bugungi kungacha ilm bilan san'at o'rtaсидagi ilmiy yo'nalish bo'lib kelmoqda. Tadqiqotchilar tomonidan izlanishlarga tayangan holda tahlil qilganda, uni (imijeligiyan) o'z nufuzini oshirish maqsadida qo'llaniladigan u yoki bu maxsus ma'lumotlar banki sifatida e'tirof etish mumkun.

Maqolada davlatning imijini shakllantirishning iqtisodiy, siyosiy va madaniy ma'rifiy aspektlari masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: davlat imiji, imidjelogiya, imijmeyker, xalqaro imij.

Kirish. Dunyoning bugungi modelida jamoatchilik qarashlarida u yoki bu davlatlarning milliy xususiyatidan kelib chiqqan o'ziga xosliklar aniq o'rinni o'rganishadi. Masalan nemischa puxtalik, shvetsarcha anqlik va yaponcha intellekt bugungi kunda mazkur millatlarning, shu bilan birga mazkur davlatlarni o'ziga xos obrazlarini ko'z o'ngimizda gavdalantiradi.

Mustaqil davlatlar hamdustligi mamlakatlarining yuqori darajadagi korrupsiyalashganligi [7] bu yerga investitsiya oqimini to'xtatib qo'ygan asosiy omil hisoblanadi, agarda korrupsiya bu darajada avj olmagan bo'lsada, bu ko'rsatkich jahon hamjamiyatida MDH davlatlari to'g'risida steoratipga aylanib ulgurgan. Shundan kelib chiqib, xar bir davlat xalqaro munosabatlarga kirishar ekan o'zining imijiga, ya'ni boshqalar tomonidan tasavvur qilinadigan obraziga ega bo'ladi.

Imij shakllantirish bilan shug'ullaniuvchi (imijmeykerlar) shunday takidlashadi: "xalqaro imij – bu, eng avvalo,

xalqar va davatlarning bir-biri bilan aloqalar tizimi va ularning samarali faoliyat yurgizishi uchun talab qilinadigan doira va qoidalar majmuasidir. SSSRning sovuq urushdagagi mag'lubiyati va uning parchalanishi aynan Sovet Ittifoqining samarali xalqaro aloqalar tizimining yemirilishi va imijini yo'qtishi bilan bog'liq edi" [6]. Bu yerda faqat birgina jihatga e'tiroz bildirish mumkun ya'ni, M. Gorbachev boshqaruvi davridagi Sovet Ittifoqi o'zining eski imijini yo'qtib qolmasdan, yangi, g'arbga moyilroq imij yaratishiga faol harakat qildi. Mutloqo yangi, amalda esa yetisha olmaydigan maqsadlarni qo'ygan Sovet Ittifoqi obyektiv va subyektiv omillar asosida parchalanib ketdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki "obraz" va "imidj" tushunchalari farqlanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Obraz – bu o'z-o'zidan shakllanadigan taassurot, imij esa maqsadli va ongli ravishda qurilgan. Globallashuv, axborot uzatishning yangi texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning keng qo'llanilishi turli mamlakatlar o'rtaсидagi

o'zaro aloqalarni yanada jadallashtirishga va ularning barcha sohalarda, jumladan, iqtisodiy va madaniy integratsiyalashuviga olib keldi.

Davlat imijini shakllantirish masalalari bilan ham bir qancha olimlar shug'ullanishgan. Bular, G.Pocepov, T.Grinberg, M.Kastels, R.Arxeym, A. Asmolov va boshqalar. Masalan, G.Pocepov imidjeologiyani kompleks ravishda o'rgangan va bu borada o'ndan ortiq o'quv qo'llanmalari chop ettirgan. T.Grinberg davlatlarning xalqaro maydonda tarixiy hamkorlik munosabatlariiga kirishishi va ularni jamoatchilik tomonidan qanday qabul qilinishini (Rossiya misoldida) tadqiq qiladi. Tarixiy jihatdan o'tish davrini keng qamrovli tarzda o'rgangan M.Kastels o'tish davrida jamiyatlarining rivojlanish bosqichlari va unga dunyodagi axborot muhitining ta'sirini ilmiy asoslashga harakat qilgan. A.Asmolov bo'lsa mamlakatning kelajagi va uning tashqi-ichki siyosati, umuman jahonda tan olinishi mazkur mamlakatning yetakchilariga bog'liqligini, umuman tarixda shaxs imijini shakllantirish muammolarini tahlil qilgan.

Tahlil va natijalar. Kuchli ta'sirga ega bo'lgan ba'zi davlatlar boshqa mamlakatlarga nisbatan afzalroq holatda. Davlatlar o'z aholisini birlashtirgan va xalqaro maydonda mavjudligini aks ettiruvechi o'ziga xos xususiyat, xususiyat va o'ziga xoslikni saqlab qolish uchun o'z imijini yaratishi kerak. Mamlakat imijini tavsiflovchi omillar juda ko'p. Ular siyosi, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, harbiy bo'lishi mumkin. Ushbu omillarni ikki toifaga bo'lish mumkin: qattiq kuch (hard power) va yumshoq kuch (soft power). Qattiq kuch – bu majburiy va qo'llaniladigan haqiqat, yumshoq kuch esa manevr uchun ko'proq joy qoldiradi. Yumshoq kuch yordamida davlatning xalqaro maydonidagi obro'si bilan bog'liq maqsadlarni yanada samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Mamlakat imiji yaxlit tushunchadir. Tahlil qilgandan so'ng shuni ta'kidlash mumkinki, obraz va imijini idrok etish subyektivdir, shuning uchun har bir kishi, uning ijtimoiy-iqtisodiy muhitidan qat'i nazar, bir xil mamlakat haqida turli xil tasavvurga ega bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki, mamlakat obraqi moslashuvchan va rivojlanishi mumkin. Faktlar, talqinlar va in'ikoslar o'rtasida og'ishlar bo'lishi mumkin, shuning uchun haqiqat va tasvir o'rtaсидаги nomuvofiqliklar bo'lishi mumkin, bu esa mamlakatlarga o'z imijini yaratish uchun biroz erkinlik beradi. Darhaqiqat, idrok etilgan tasvir har doim ham haqiqatga mos kelmaydi. Shunday qilib, har bir davlat o'z mamlakatining xalqaro maydonidagi obro'sini shakllantirish uchun turli texnologiyalardan foydalaniш zarur.

Insoniyat tarixi davomida, xalqaro siyosi tizimning muhim va ajralmas instituti hisoblangan davlat ichki va tashqi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda o'zining ijobjiy obrazini yaratishga, va shu asosida o'z legitimligini oshirishga harakat qilib kelgan va bundan keyin ham harakat qiladi. Bunda, eng avvalo, davlatning imijini shakllantirish va qanday asoslarga ko'ra baholanish mezonlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Bu mezonlar esa quyidagilardan iborat deyishimiz mumkin:

Davlatning iqtisodiy qudrati.

Mamlakat iqtisodiy potensialining asosini – uning tabiiy-resurslari, ishlab chiqarish, mehnat, ilmiy-texnikaviy va eksport salohiyati tashkil qiladi. Davlatning mazkur iqtisodiy salohiyatini samarasini uning ishlab chiqaradigan yalpi milliy maxsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladi. Tabiiy-resurslar mamlakatning tabiiy boyligi hisoblanib, o'zlashtirilgan va ishlab chiqarishga joriy qilingan taqqidragina iqtisodiy o'sishga omil bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish vositalari (bino, inshaot, asbob-uskuna va jixozlar) texnologiya, ishchilar va injener-texnik xodimlar mamlakat ishlab chiqarish

saloxiyatinining asosini tashkil qiladi. Mehnat potensiali bu – mamlakatning mehnat resurslari deyish mumkin. Uning hajmi va sifati aholining faol va mehnatga layoqatli qismining soni, uning ilmiy va professional-malakaviy darajasi bilan belgilanadi. Mamlakatda fundamental va amaliy fanning yutiqlari, ilmiy kashfiyotlar, yangi texnologiyalar, tajriba-eksperimental baza hamda malakali ilmiy-texnik va konstruktur kadrlar mamlakat ilmiy- texnikaviy salohiyatini belgilab berivchi asosiy omillardir. Davlatning eksport salohiyati – bu milliy iqtisodiyotning jahon bozorida raqobadbardosh mahsulot ishlab chiqarishi, uni yetarli darajada va xalqaro bozorlar narhida eksport qila olish qobiliyati hisoblanadi [4].

Davlatning siyosiy salohiyati. Davlatning boshqaruvi tizimi, uning siyosiy rejimi va aholining siyosiy madaniyati davlat siyosiy salohiyatini shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakat ichki siyosatida aholining siyosiy huquqlari ta'minlanganligi, demokratik saylov tizimi, hokimiyatning taqsimlanish prinsipi va fuqorolarning siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ishtiropining ta'minlanganligi mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashga asos bo'ladi.

Davlat o'z tashqi siyosatida "davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxilsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalariga va normalariga" [1] asoslanishi davlatning tashqi siyosiy faoliyati demokratik prinsiplarga hamoxang ekanligini anglatadi. Davlatlarning xalqaro hamkorligi o'zaro xavfsizlikni mustahkamlash va qurolli kuchlar jangavor tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan harbiy sohada birgalikda faoliyat yuritishni ko'zda tutadi. Davlat tashqi siyosatining maqsad va asosiy yo'nishlari faqat millatning iqtisodiy, harbiy, axborot, demografik resurslarini qamrab olgan umumiyy quvvati (potensiali) bilan taqqoslangandagina ayanan bir xil mos va natijali bo'ladi [5].

Tashqi siyosatda maqsadga erishishning turli tamoyillari, metod va mexanizmlari mavjud bo'lib unda, diplomatiya muhim rol o'ynaydi. Hozirgi zamon diplomatiyasi tashqi siyosatning maqsad-vazifalariga erishuvini, mamlakatdan tashqarida o'z davlat va fuqorolarning manfaatlarini ta'minlaydi, davlatlarning muzokaralar jarayonini, axborot hamkorligini (almashinuvini) tashkil qiladi, davlat va hukumat boshliqlari, davlatning tashqi aloqa organlari hamda bevosita diplomatlarning rasmiy faoliyati shaklida amalga oshadi. Umuman davlat tashqi siyosatining asosini tashkil qiladigan diplomatiyaning muhim vazifasi davlatlar o'rtasida muloqot yo'li bilan ularning xalqaro jarayonlardagi ishtiropini ta'minlaydi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning fikri bilan aytganda: "Tarixni olg'a intilishiga majorolar va kelishmoqchiliklar emas, balki millatlar o'rtasidagi xamkorlik va o'zaro ishonch asos bo'lib xizmat qiladi" [2].

Demak, qarluqlar avval ham qayd etganimizdek 766 yilda turkashlar ustidan g'alaba qozongach, Yettisuv hududida o'zlarining yirik qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan davlatlarini tashkil etishgan. Qarluq qabilalar ittifoqi tuzilgan sana (766 yil) Qoraxoniylar davlatining poydevori o'mratilgan vaqtini o'zida ifoda etadi. Shunday ekan bu davrdagi qarluq qabilalar ittifoqi va unga vaqt o'tishi mobaynida qo'shib borgan turkiy qabilalar, turli etnik guruuhlar shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisi hisoblanadi. Bu jarayonlar esa shu bilan izohlanadiki, qarluqlar Yettisuvni egallab, o'z hududlarini kengaytirib, qo'shni qabilalarni tobe etishgach, ilgarigi qabila sardori ya'nii jabg'uni vakolat doirasi ham kengayadi. Avvalgi davrda jabg'u faqat bir qabila ittifoqini boshqarib kelgan bo'lsa, endilikda u o'ziga qarashli bo'lgan hududlarda yashovchi bir qancha boshqa qabilalar va turg'un aholi jamaoalarini ham boshqargan.

Ko'rinib turibdiki, qarluq qabilalar ittifoqi IX asrga kelib siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda tarkibiy jihatdan birmuncha o'zgarishlarga uchragan. Aniqrog'i, bu davrga kelib qarluqlar va ularga tegishli hududlarda yashovchi turkiy qabilalar hayotida keskin burlish bo'lgan.

Ularning yagona va yirik davlat tuzishlari uchun imkoniyatlар va shart-sharoitlar pishib yetilgan edi. Natijada, juda ko'p qabilalarni bir ittifoqga uyushishi bilan, yangi bir yirik davlatiga asos solindi. O'z navbatida bu davlatni endi jabg'u emas, balki chinakam hukmdor «hoqon» boshqara boshlagan. Hoqon esa ilgarigi jabg'ulardan, ya'ni qarluqlardan chiqqan bo'lishi mumkin. Hoqon sulolasiga qarluq qabilasidan chiqqan ekan, mazkur davlatni yuzaga kelishida aynan shu qabilaning hissasi katta bo'lganligi shubhasizdir. Biroq bu Qoraxoniylar davlatini yuzaga kelishida faqat qarluq qabilasi ishtirok etgan, degan ma'noni anglatmaydi. Balki bu yirik davlat ko'pgina turkiy qabilalarni birikib, uyushib borishi

ADABIYOTLAR

- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. - Б. 499; 1961. 2-жилд.- Б. 427; 1963. 3-жилд. – Б.466. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 964.
- Кораев О.К. История Каракалпакского каганата.-Фрунзе: Илим, 1983.- С. 301.
- Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуклар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 192.
- Ходжаев А., Турдиева Д. Қорахонийлар ҳоқонлиги тарихи Хитой Ҳалқ Республикаси олимлари тадқикотларида.-Тошкент: Фан зиёси, 2021.-Б.150.
- Бартоль В.В. Извлечения из Сочинения Гардизи «Зайн ал-Ахбар». Сочинения. Т. VIII. – М.: Наука, 1973. – С. 45.
- Шониёзов К.Ш. Ўзбек ҳалқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 346.
- Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 70.
- Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 459-462.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 244, 348, 378 ва бошқа бетлар.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 460.
- Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.
- Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.
- Махмудов Б.Х. Қарлук-корахонлар давлатида қўлланган “бугра” тотеми хусусида // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences — April. 2022 Vol. 02, Issue 04/2. ТОШКЕНТ. — Б. 158-165. <https://oriens.uz/journal/article/arluoraonlar-davlatida--llangan-bura-totemi-ususida>
- Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуклар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 37.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.
- «Худуд ал-алем» - рукопись Туманского с введением указателем В.В.Бартольда. – Л.: Изд. АН СССР, 1930. – С. 17.
- Григорьев В.В. Об Арабском путешественнике Х-го века Абу Долефе и странствовании его по Средней Азии // ЖМНП. – СПб., 1872. -№9. – С. 30-35.
- Шониёзов К.Ш. Ўзбек ҳалқининг шаклланиши жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 340.
- Махмуд Кошгари. Девону луготит-турк / Индекс-лугат. Ф.А. Абдурахмонов., С.М. Муталибовлар таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 391-397; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Б. 286.

natijsida hosil bo'lgan. Umuman olganda, Qoraxoniylar davlati tarkibida yuqorida nomi zikr etilgan qabilalardan tashqari chig'il, xalach, arg'u, to'ksi, jumul, qay, yamak, yabaqu, qang'li, az, uz kabi ko'plab boshqa qabilalar ham mavjud bo'lgan.

Davlatni tashkil etishda, turkiy qabilalar asosiy negiz bo'lgan bo'lsa, uning keyingi davr mobaynidagi taraqqiyoti Mavarounnahrning o'troq mahalliy aholisiga ham har jihatdan bog'liq bo'lib kelgan. Qoraxoniylar davlati tarkibida faqat ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi turkiy qabilalar emas, balki o'troq xalq vakillari ham ko'pchilikni tashkil etgan. Ayniqsa, Qoraxoniylar davlati 1040 yilda G'arbiy va Sharqiy hoqonlikga bo'linib ketgach, G'arbiy hoqonlik Mavarounnahrdan iborat bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda, Qoraxoniylar davlatida qabilalarning o'rni va roli turlicha bo'lib, ularning davlatni siyosiy boshqaruvidagi ishtiroki ham shunga ma'lum ma'noda bog'liq bo'lgan. Tarixiy jarayonlar esa bir xil kechmagan, albatta. Dastlabki davrda nufuzli kuchha ega bo'lgan qabilalar, keyingi davrlarga kelib, davlat boshqaruvida o'zini ilgarigi ustuvor mavqeini yo'qotgan yoki davlat tarkibidagi boshqa yirik qabilalar bilan birlashib, uyg'un ko'rinishga kelib qolgan. Bu davrdagi davlatlarning yashovchanligi va harbiy quadrati, uning tarkibidagi aholining soni va ularning uyushganlik darajasiga har jihatdan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun ham hoqonlar ulug'vor unvon sifatida shu qabilalarning totemlari (bug'raxon, arslonxon)ni o'z nomlariga qo'shib aytishni odat qilishgan. Aytmoqchimizki, Qoraxoniylar davlati o'zining uzoq tarixiy davriga ega ekan (766-1212), uning tarixini xolisona o'rganish uchun davlat tarkibidagi barcha qabilalarga alohida e'tibor berish zarur, deb o'ylaymiz. Chunki biz o'rganayotgan bu hoqonlik qabilalarning o'zaro hududi uyushmasi sifatida barpo etilgan. Shuning uchun uning tarkibidagi har qaysi qabila katta-kichikligidan qat'iy nazar davlat faoliyatida o'z o'rniiga ega bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. - Б. 499;

1961. 2-жилд.- Б. 427; 1963. 3-жилд. – Б.466. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 964.

2. Кореев О.К. История Каракалпакского каганата.-Фрунзе: Илим, 1983.- С. 301.

3. Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуклар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 192.

4. Ходжаев А., Турдиева Д. Қорахонийлар ҳоқонлиги тарихи Хитой Ҳалқ Республикаси олимлари тадқикотларида.-Тошкент: Фан зиёси, 2021.-Б.150.

5. Бартоль В.В. Извлечения из Сочинения Гардизи «Зайн ал-Ахбар». Сочинения. Т. VIII. – М.: Наука, 1973. – С. 45.

6. Шониёзов К.Ш. Ўзбек ҳалқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 346.

7. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 70.

8. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар. Б. Ўрдабекли., А. Айритомий. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 459-462.

9. Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 244, 348, 378 ва бошқа бетлар.

10. Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1963. 3-жилд. – Б. 460.

11. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.

12. Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадгу билиг / Транскрипция ва хозирги ўзбек тилига тавсиф. нашрга тайёрловчи Қ. Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 735.

13. Махмудов Б.Х. Қарлук-корахонлар давлатида қўлланган “бугра” тотеми хусусида // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences — April. 2022 Vol. 02, Issue 04/2. ТОШКЕНТ. — Б. 158-165. <https://oriens.uz/journal/article/arluoraonlar-davlatida--llangan-bura-totemi-ususida>

14. Шониёзов К.Ш. Қарлук давлати ва қарлуклар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 37.

15. Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.

16. Махмуд Кошгари. Девону луготит турк / Тарж ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталибов. – Тошкент: Фан, 1960. 1-жилд. – Б. 498.

17. «Худуд ал-алем» - рукопись Туманского с введением указателем В.В.Бартольда. – Л.: Изд. АН СССР, 1930. – С. 17.

18. Григорьев В.В. Об Арабском путешественнике Х-го века Абу Долефе и странствовании его по Средней Азии // ЖМНП. – СПб., 1872. -№9. – С. 30-35.

19. Шониёзов К.Ш. Ўзбек ҳалқининг шаклланиши жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 340.

20. Махмуд Кошгари. Девону луготит-турк / Индекс-лугат. Ф.А. Абдурахмонов., С.М. Муталибовлар таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 391-397; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Б. 286.



Behzodbek TURSUNOV,

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: behzod.tursunov.88@mail.ru

O'DJTU professori, D.Bobojonova taqrizi asosida

ADOPTION OF NORMATIVE DOCUMENTS ON TEACHING FOREIGN LANGUAGES DURING THE SOVIET GOVERNMENT IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the normative documents adopted in Uzbekistan during the Soviet government in order to improve the teaching of foreign languages. The purpose of decisions and decrees to further improve the teaching of foreign languages, to improve it in accordance with modern students, to protect the rights of teachers-professors and students, is explained on the basis of archival data.

Key words: Decision, document, foreign languages, state, curriculum, education, education, school, higher education, decree.

ПРИНЯТИЕ НОРМАТИВНЫХ ДОКУМЕНТОВ ПО ОБУЧЕНИЮ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ ВО ВРЕМЯ СОВЕТСКОЙ ПРАВИТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются нормативные документы, принятые в Узбекистане во времена советской власти в целях совершенствования преподавания иностранных языков. На основе архивных данных поясняется цель решений и указов по дальнейшему совершенствованию преподавания иностранных языков, совершенствованию его в соответствии с потребностями современных студентов, защите прав преподавателей-профессоров и студентов.

Ключевые слова: Решение, документ, иностранные языки, государство, учебная программа, образование, воспитание, школа, высшее образование, указ.

O'ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI DAVRIDA XORIJY TILLARNI O'QITISHGA DOIR ME'YORIY HUJJATLARNING QABUL QILINISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda sovet hukumati davrida chet tillarni o'qitishni yaxshilash maqsadida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar tahlil etilgan. Qaror va farmonlarning vazifasi chet tillar o'qitilishini yanada yaxshilashga, uni zamon talabalariga mos ravishda takomillashtirishga, o'qituvchi-professorlar va talabalar huquqlarini himoya qilishga doir ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar arxiv ma'lumotlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qaror, hujjat, chet tillari, davlat, o'quv dastur, maorif, ta'lif, maktab, oliy ta'lif, farmon.

Kirish. Yer yuzida istiqomat qilayotgan barcha insonlar serqirra dunyoning juda tez o'zgarib borayotganiga nafaqat guvoh, balki jahon madaniyati, fan-teknikasining rivojlanib, taraqqiy etib borishi kabi murakkab va uzluksiz jarayonlarning bevosita ishtiroychilar hisoblanib, chet tilini bilish va uni o'qitishga nisbatan dolzarb masala sifatida qaradilar.

Chet tillarini o'qitish va o'rganishga O'zbekistonda ham davlatning ijtimoiy yo'naliishi sifatida e'tibor qaratilib, ta'lif sohasini rivojlantirishda hukumat tomonidan yoshlarni nafaqat keng bilim, professional ko'nikmalarini egallashi, ayni paytda, chet el mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishi, dunyoda ro'y berayotgan voqe'a-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilindi. Shu munosabat bilan, ushbu sohaga doir me'yoriy hujjatlar qabul qilishga, xususan, xorijiy tillarni o'qitishning huquqiy asoslarini yaratishga muhim e'tibor qaratildi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarning dastlabkilari XX asrning birinchi choragida qabul qilingan. Bu davrda Rossiyada ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar o'lkamizga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Maorif va madaniyat sohasida yangi vazifalar paydo bo'ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sovet hokimiyati hukmronligi yillarda yaratilgan tadqiqotlar XX asrning 30-50 yillariga to'g'ri keladi va ularda O'zbekistonda xorijiy tillar

o'qitilishiga oid bo'lgan qator ma'lumotlar keltiriladi. Bu davrda yaratilgan ishlarning o'ziga xos xususiyati shundaki baynalmilal kayfiyat bilan birga, chuqur g'oyaviy bosim seziladi. Ko'proq rus va nemis tillariga (bu mafkuraviy qarashlarni ifodalovchi sabab) katta e'tibor qaratilgan. Shunga qaramay, bu ishlar qatoriga chet tillarni o'qitish uslubining boshqa fanlar bilan yaqin aloqada ekanligi turli soha olimlari tomonidan asoslab berilgan. Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M.Behbudiy va A.Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o'rganmoq darkor, deb zamona yoshlarini ilm-ma'rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etidi. Bu borada shoir G.G'ulom shunday degan edi: "Idrokli yoshlarimizning ko'pchiligi uch til egasidir".

O'zbekiston hududida istiqomat qilgan barcha xalqlar qadimdan bir-birlarining tillarini yaxshi bilishgan, tillar ularning yanada yaqin, ahil va do'stona hayot kechirishlari uchun va qarindoshchilik rishtalarini bog'lovchi omil bo'lgan. O'zbeklar yaqin qo'shnilarini tilini bilishdan tashqari uzoqdagi xalqlar tilini ham o'rganganliklari tarixdan ma'lum. Mahalliy xalqlar orasida arab, fors - tojik tillari o'z davrida keng tarqalgan. Sovet davriga kelib, davlatdan dinning ajratilishi oqibatida sharq tillariga, jumladan, arab tiliga e'tibor susayib ketdi. Bu davrda yaratilgan asarlar ushbu maqolaning g'oyaviy tomonini belgilash va tahlil qilish imkonini berdi.

Turli xalqlarning chet tilini o'rganish tarixi juda boy, bir necha jildlik ilmiy asarlar uchun yetarli, biroq bu borada tizimli ish qilinmagan bo'lsa-da, ta'limga oid qator tadtiqot ishlari mavjud[1]. Tadtiqotchilar asarlarida chet tili o'qitishning yo'lga qo'yilishi va sohada kadrlar tayyorlash siyosatiga doir masalalar birmuncha o'rganilgan[2]. Xususan, sharqshunos olim M.Abdusamatov chet tilini, jumladan, sharq tillarini bilishning ahamiyati va olib borilgan ilmiy-tadtiqot ishlariغا oid ma'lumotlar keltirgan. Ushbu tadtiqotlar manbaviy xarakterga ega ekanligini ham ta'kidlash lozim.

Tadtiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, xronologik izchillik, qiyosiy tahlil, og'zaki tarix kabi ilmiy tadtiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Maktablar uchun yangi vazifalarni belgilab bergan birinchi hujjat "Umumiy mehnat maktablarining asosiy printsiplari"da chet tillarni majburiy o'qitiladigan predmetlar qatoriga kiritish zarurligi ko'rsatilgan edi[1]. Shunga muvofiq, Turkiston xalq maorifi komissarligining umumiy mehnat maktabiga tatbiq etish uchun "...bosholg'ich maktabda mahalliy til, o'rta maktabda – o'quvchilarning mayliga ko'ra fransuz, nemis, ingliz tillaridan birinchi majburiy", deb buyruq chiqarishi o'lkada chet tillar o'qitilishiga yo'l ochdi.

1931 yilda O'zbekistonda Toshkent chet tillar ikki yillik kursi tashkil etildi, biroqbu kurslarda mahalliy millat vakillari yo'q edi. Ta'lim tizimi esa xuddi mana shunday tubjoy o'qituvchi kadrlarga muhtoj edi. 1932 yil 25 avgustda VKP(b) Markaziy Komiteti tomonidan "O'quv dasturlari va bosholg'ich hamda o'rta maktab rejimi haqida" [2] qaror qabul qilindi. Unda "...o'rta maktabni bitirayotgan har bir o'quvchining bitta chet tilini bilishi" [3] ni ta'minlash lozimligi, chet tilini majburiy predmetlar qatoriga kiritish zarurligi ko'rsatilgan edi. Ushbu qarorda chet tillar o'qitilishini yanada kengaytirish, xorijiy tillardan asosiy o'rinn berilayotgan nemis tili o'rniga ingliz hamda fransuz tilini kiritish masalasi vazifa qilib qo'yildi.

1941 yilning yanvar oyida O'zbekiston SSR Xalq Komissarları Soveti "Maktablarda chet tillar o'qitishni yaxshilash to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda ko'rsatilganidek, chet tillari o'qitilmayotgan ayrim maktablarda chet til o'qitishni yo'lga qo'yish hamda 1941/1942 o'quv yilida 5-sinfdan boshlab barcha maktablarda, keyinroq esa barcha qishloq maktablarida ham chet tillar o'qitilishiga erishish shart edi.

O'zbekistonda chet tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish va buni yanada takomillashtirish maqsadida bir nechta yo'nalihsida, ya'ni, o'quvchilar tayyorlash ishini kengaytirish va yaxshilash; chet tili o'qitilmayotgan maktablarda esa tillar o'qitishni yo'lga qo'yish; o'rganilayotgan G'arbiy yevropa tillarini maqsadga muvofiq taqsimlash; ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash; o'qitish sifatini oshirish ustidan nazoratni kuchaytirish va shu kabilar borasida ishlarboshlab yuborildi. Respublika xalq maorifi oldidagi asosiy muammo barcha maktablarda xorijiy tillarni o'qitishni yo'lga qo'yish va nemis tilidan boshqa G'arb tillarining ham o'qitilishini to'g'ri yo'lga qo'yish masalasi paydo bo'ldi. Bu boradagi eng muhim vazifa, maktab va oliy o'quv yurtlarini chet tilini mukammal biladigan mutaxassislar bilan ta'minlashdan iborat edi.

Toshkent chet tillar pedagogika institutida 1949 yili sirtqi bo'lim, 1960 yilda kechki bo'lim faoliyat ko'rsata boshladi.

Hukumat qarorida ko'rsatilganidek, ma'lum vaqt o'tib xorijiy tillar o'qitishni kengaytirish ishi barcha maktablar o'quv rejasida bu fanlarning ulushini oshirish yo'li bilan ham olib borilgan. 1959 yilga kelib, Maorif vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, chet tillar respublikadagi 37 foiz maktablarda o'qitilgan[4]. 1961-1962 o'quv yilidan e'tiboran, 25 tadan ortiq o'quvchisi bo'lgan sinflarda, chet tili darslarda ikki guruhga ajratib o'qitish belgilab qo'yildi. Ko'zlangan maqsad, ya'ni o'quvchilarda gapirish, tinglab tushunish hamda o'qish va yozuv malakalarini hosil qilishdan iborat zamonaviy natijalarga erishish maqsad qilingan.

XX asrning 70-yillari boshida chet tillar o'qitish mazmunini belgilashda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunda ayniqsa, sovet hukumatining 1972 yil 16 iyuldag'i "Mamlakatda oliy ta'limi yanada takomillashtirish choratadbirlari" to'g'risidagi qarori qabul qilinishi O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari talabalariga ham chet tili o'qitishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi[5]. Bu davrga kelib, respublika o'quv yurtlari malakali chet tillar o'quvchilar bilan to'la ta'minlashga erishildi. Shu sabab bo'lsa kerak, "chet tili" ixtisosligi beriladigan pedagogika oliy o'quv yurtlaridagi talabalar soni biroz qisqartirildi. 1973 yilda 2672 nafar talaba qabul qilingan bo'lsa, 1974 yilda 2105 nafar talaba o'qitildi[6].

O'zbek maktablari uchun SSSR Pedagogika Fanlar Akademiyasi tomonidan tayyorlangan dastur loyihasi asosidamolashtirilgan bir nechta yangi dastur yaratildi. Rossiya rus maktablari dasturi loyihasidagiga nisbatan o'zbek maktablari dasturida o'zlashtirish uchun berilgan namunaviy iboralar va til materiali birmuncha kamroq kiritilgan. Yangi yaratilgan dasturda o'zbek va rus maktablari o'rtaqsidagi asosiy tafovut yetarli darajada hisobga olingan edi.

Xulosa va takliflar. 80-yillarda ham oldingi qarashlar, dars berish usullari, eski darsliklar qo'llanilishi davom etdi. Faqat 1984-1985 o'quv yilidan boshlab ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, zamon ilgari surgan yangi talablar asosida chet tili o'qitishni qaytdan ko'rib chiqish zarurati tug'ildi. 1984 yilda 4-sinfdan boshlab chet tillari o'qitila boshladi. 4-5-sinf chet tili darsliklari yozilib, nashrдан chiqdi va ular asosida chet tillari o'qitildi. Yuqori sinflarda chet tilidan dars soatlari haftasiga 2 soatdan 1 soatga tushib qolishi soatlarni moslashtirish, qisqartirishda katta qiyinchiliklар tug'dirdi. Respublika maorif vazirligi, malaka oshirish institutlari bular ustida katta ish qilishlariga to'g'ri keldi, biroq ularni har bir maktabga, o'quvchilarga yetkazish, ularni tayyorlash ancha qiyin kechdi. 1988 yilda o'zbek maktablari uchun yangi dastur chiqdi, lekin u ham rus tilida yozilgand edi[7]. Bu albatta, mahalliy millat vakillari uchun qiyinchilik tug'dirar, chet tillar o'qitilishiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatar edi.

XX asrning 90-yillar boshlari o'zgarishlarga nihoyatda boy davr bo'ldi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng dunyo mamlakatlari orasida nafaqat ijtimoiy-madaniy, balki iqtisodiy va siyosiy sohalarda ham o'zining munosib o'rniga ega bo'lish imkoniyati tug'ildi. Bu davorda xorijiy mamlakatlar bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar natijasida chet tillarni, xorijiy davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini chuqur biladigan mutaxassis kadrlarga bo'lgan talab va ehtiyoj ortdi. SHu bois, mustaqil O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganish va o'qitishga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi, bu ishga davlat siyosati darajasida e'tibor berila boshladi.

ADABIYOTLAR

- Мирзакулов А. Международные научные связи Узбекистана (1960-1980-е годы). Дисс. ... канд. ист. наук.–Фергана, 1993.–140с.; Худайкулов А. Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX в.). Автореф. дисс. ...канд. ист. наук.–Ташкент, 1995.–32 с.; Муминов А. Национальная политика независимого

Узбекистана и пути её реализации в духовно-культурной сфере (теория и практика) Автореф. дисс. докт. полит. наук. – Ташкент, 1999.

2. Абдусаматов М. Ўзбек шарқшунослари. Библиографик очерк.–Тошкент:Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.–504 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи К.1./Тузувчилар: Х. Содиков, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов ва бошқ.–Тошкент:Шарқ, 2000.–464 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2./Тузувчилар: М. Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ.–Тошкент:Шарқ, 2000.–688 б.; Хўжаев А. Буюк Ипак Йўли: муносабатлар ва тақдирлар. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий ЭнциклопедиясиДавлат илмий нашрёти, 2007. –280 б.;Андижон тарихидан лавҳалар./Р.Шамсутдинов, А.Исҳоқов.–Тошкент:Шарқ, 2013.–592 б.; Умархўжаев М. Андижонда хорижий тиллар бўйича мутахассислар тайёрлашнинг ярим асрлик тарихи.–АДУ, 2016.–142 б.; Алимова Д. История как история, история как наука. –Ташкент:Узбекистан, 2008.–280 с.; Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. Тўққизинчи йил нашри. №12. –Тошкент:Фан, 1975.–73 б.
3. Основные принципы единой трудовой школы. Народное образование в СССР. Сб.документов за 1917-1973 гг. Москва, 1974.– С.33.
4. Социалистическое строительство Узбекской ССР. Статистический сборник. Ташкент, 1940. – С.222-241.
5. Народное образование в СССР, общеобразовательная школа. Сборник документов 1917-1973 гг. Москва:Педагогика, 1974. – С.162.
6. ЎзМА, Р-94-Фонд, 5-рўйхат, 5090-йигма жилд. Об улучшении преподавания иностранных языков в школах УзССР. 25-варак.
7. ЎзМА, Р-2653-Фонд, 1-рўйхат, 2653-йигма жилд. Отчет о работе Ташкенцкого государственного педагогического института иностранных языков за 1973/1974 учебный год.140-варак.
8. Материалы планово-финансового управления Министерства просвещения УзССР за 1973 и 1974 годы//Зарипова Р. Чет тил ўқитиши методикасидан қўлланма. – Тошкент:Ўқитувчи, 1986. – Б.110.
9. Ҳошимов Ў., Ёкубов И. Инглиз тили ўқитиши методикаси. –Тошкент:Шарқ, 2003. –Б.69.



Xurshid TURSUNOV,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: xurshid12@mail.ru

IPU v.b.dotsent, t.f.f.d.(PhD), B.Mamatqulov taqrizi asosida

VOHA SANOAT TARIXI BUNYODKORI, QASHQADARYO TARIXCHILARINING ZABARDAST VAKILI PROFESSOR OBOD JO'RAQULOVNING ILMYI MEROSI

Annotatsiya

Yurtimizda o'zining ilmiy tadqiqotlari bilan iz qoldirgan ko'plab tarixchi olimlarni sanab o'tishimiz mumkin. Mazkur maqolada voha sanoat tarixi asoschilaridan, tarix fani bo'yicha respublikamizda ko'zga ko'ringan olim, ko'plab yosh tadqiqotchilarga ustozlik qilib, hayotda o'zidan o'chmas iz qoldirgan muarrix, tarix fanlari doktori, professor Obod Jo'raqulovning hayoti va ibratli faoliyatil ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Sanoat, Surxondaryo, Qashqadaryo, chandir turkmanlari, tarix fani, mang'itlar, energiya, tadqiqot, monografiya, ilmiy maqola, arxiv.

НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ ПРОФЕССОРА ОБОД ДЖУРАКУЛОВА, СОЗДАТЕЛЯ ОАЗИСА ПРОМЫШЛЕННОЙ ИСТОРИИ, ВЫДАЮЩЕГОСЯ ПРЕДСТАВИТЕЛЯ ИСТОРИКОВ КАШКАДАРЬИ

Аннотация

Мы можем перечислить многих ученых-историков, которые оставили свой след в нашей стране своими научными исследованиями. В этой статье рассказывается о жизни и образцовой деятельности профессора Обода Джуракулова, одного из основоположников истории оазисной промышленности, видного ученого в области истории нашей республики, историка, оставившего неизгладимый след в жизни, наставничество многих молодых исследователя, доктора исторических наук, освещается на научной основе.

Ключевые слова: Промышленность, Сурхандарьинская, Кашкадарьинская, Чандырская туркмены, история, энергетика, исследования, монография, научная статья, архив.

SCIENTIFIC HERITAGE OF PROFESSOR OBOD ZHURAKULOV, FOUNDER OF INDUSTRIAL HISTORY OF VOHA, GREATEST REPRESENTATIVE OF HISTORIANS OF KASHKADARYA

Annotation

We can list many historical scientists in our country who have left their mark with their scientific research. In this article, the life and exemplary work of Professor Obod Djorakulov, one of the founders of the history of oasis industry, a prominent scientist in the field of history in our republic, a historian who left an indelible mark on life by mentoring many young researchers, doctor of historical sciences, will be covered on a scientific basis.

Key words: Industry, Surkhandarya, Kashkadarya, Chandir Turkmen, history, energy, research, monograph, scientific article, archive.

Kirish. Insoniyat uzoq asrlar davomida erishgan sivilizatsiya, moddiy va ma'naviy madaniyatning bugungi darajasi jahon xalqlari qobiliyati, zehni, tadbirkorligi, matonati, tinimsiz mehnatining mahsulidir. Tarix odamzotning hayot uchun kurashimi, bu jarayonda uning takomillashuvini, yuksalishini, kamolotga intilishini aks ettiruvchi xotira daftaridir. Demak, jahon tarixining tarkibiy qismi bo'lgan Vatanimiz o'tmishi ajdodlarimiz turmush tarzi, ma'naviyruhiy kechinmalari, sodir bo'lgan voqeа-hodisalar haqidagi fandir.

Tarix ajdodlarning keyingi avlodlarga qoldirgan noyob merosi, xalqimizning intellektual mulkidir. Abdurauf Fitrat "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzull sabablarini o'rganaturg'on bilimdir", degan edi. O'tmishning murabbiyligini inobatga olib Abdulla Qodiriy moziyga qarab ish qilmoqqa da'vet etadi. Mahmudxo'ja Behbudiy esa tarix kelajak tarozusidir, deb uqtiradi. Tarixda sodir bo'lgan har bir voqeа, hodisa o'tmishga mansub. Shul sabab ularni keyingi avlod o'zgartirolmaydi[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda yangi demokratik jamiyat qurishga yo'l tutgan O'zbekiston jamiyatini uchun o'zligini aniqlashda tarixiy xotirani uyg'otish asosiy ma'naviy vazifalardan biri hisoblanadi. "Ajodlari

buyuk bo'lgan, jahon sivilizatsiyasi va insoniyat taraqqiyotiga juda katta xissa qo'shgan madaniyatga daxldor fuqaroning qalbida o'tmishini o'rghanish orqali milliy g'ururining uyg'onishi mamlakat mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan bir paytda katta ma'naviy qudrat va ulkan iroda kuchi bo'lib xizmat qiladi" [5]. O'zligini anglagan, taraqqiyotning optimal variyantini tanlagan davlat, jamiyat uyg'un rivojlanadi. Tarix kelajakka yo'l ko'rsatuvchi xaritadir. Shuning uchun ham turli mamlakatlar o'z taraqqiyot yo'lini belgilab olishda o'zining o'tmish tarixiga tayanib ish tutadi. O'z tarixini chuqur bilgan xalq irodali bo'ladi va uni hech qanday kuch yenga olmaydi.

Barchamizga ma'lumki, Qashqadaryo viloyati azaldan dunyo tan olgan olimu fuzulolar yurti hisoblanadi. Xususan, vohadan turli asrlarda yetishib chiqqan yuzlab Nasafiy va Keshiyarning dunyo tamadduniga qo'shgan munosib hissasi fikrimiz dalilidir.

Mustaqillik yillarda yurtimizda yaratilgan keng imkoniyatlar natijasida ilmiy jarayonlar yanada faollashib, Qashqadaryo viloyatidan respublikaga taniqli fan va madaniyat arboblari etishib chiqdi. Albatta, bu jarayonga viloyatning eng ilg'or va yetakchi ilm maskanlaridan hisoblangan, qariyb 80 yillik tarixga ega Qarshi davlat universiteti asosiy fan, san'at va madaniyat namoyondalar

yetishitirib beruvchi dargohlardan biri bo'lib xizmat qildi. Darhaqiqat, mazkur "Janub javohiri" deb ta'rif beriladigan olyi dargohning nufuzi yuqori hisoblanadi va unga asosiy tamal toshini qo'ygan ziyoli olimlar hali sovetlar hukmronligi davrida kamol topgandi.

Qarshi davlat universiteti o'zining bir necha ilmiy maktablari bilan mashhur. Ana shunday peshqadam ilmiy maktablardan biri tarix maktabidir. Ushbu matabning asoschilaridan biri va ilg'or vakili, butun umrini ilm-fanga bag'ishlagan fidoyi inson, tarix fanlari doktori, professor Obod Jo'raqulovdir.

O.Jo'raqulov butun hayotini ilm-fanni rivojlanтирish, yosh avlodni tarbiyalashga bag'ishladi. Olim o'zining 55 yillik ilmiy faoliyati davomida tarix fani sohasida muhim tadqiqotlarni amalga oshirib, Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid muhim ilmiy xulosalar yaratdi. Uning O'zbekistonning dunyo madaniyatni tamaddunidagi o'rni mavzusiga oid maqolalari, tadqiqotlaridan hozirda ko'plab xorijiy ilmiy markazlar hamda olityoghlarda foydalilaniladi.

Asl millati turkman bo'lgan olim 1936-yilda Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani, Chandir qishlog'ida tug'ilgan. Onasidan erta ajralgach, bolaligi o'gay ona qo'lida, qiyinchilik bilan o'tdi. O'rta ta'limdi Chandirda, turkman maktabida oldi. Balog'atga etib mustaqil hayotga qadam qo'yish arafasida u faqat turkman tilini bilardi, xolos. Hayotda oldiga qo'yagan ulkan maqsadlariga erishish, sovetlar jamiyatida o'zining o'rniiga ega bo'lish uchun o'zbek va rus tillarini bir vaqtida o'rganishni boshladi. Qilgan mehnatlarining samarasini o'laroq bo'lajak olim 1956-yilda Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o'qishga kirdi. Talabalik vaqtida kuchli xotirasni, bilimga chanqoqligi bilan boshqa kursdoshlaridan ajralib turgan O.Jo'raqulov universitetni imtiyoziyl Diplom bilan tugatdi [1].

Tahlil va natijalar. Pedagogik faoliyatini maktabda boshlagan yosh olim ko'p o'tmay ilmiy faoliyat bilan chuquq shug'ullanish maqsadida o'zi tahsil olgan Samarqand davlat universiteti aspirantura yo'nalishiga hujjat topshirdi va o'qishga qabul qilindi. Bo'lajak olim ustoz bilan kelishgan holda "O'zbekistonda gaz sanoatining yaratilishi va rivojlanish tarixi" kabi murakkab mavzu tanladi. Bu yo'lda yosh olim neft va gaz sanoatining yetakchi mutaxassislar bilan hamkorlik qildi.

Sobiq Sovet davlatining neft va gaz konlari topilgan turli nuqtalarida, xususan Sibir va Turkmaniston cho'llarida, qishning qahratoniyu, yozning jaziramalariga qaramasdan ilmiy izlanishlar olib bordi. Sobiq ittifoq hududida olimming qadami etmagan birorta ham neft va gaz konlari topilgan joy qolmadi. Mashaqqatlari mehnat va tinimsiz izlanishlar natijasi o'laroq, 1968-yilda Obod Jo'raqulov nomzodlik dissertasiyasini muvaffaqiyatlari himoya qilib, tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Olim bu yutuqlar bilan cheklanib qolmadni va ilmiy ishlarini yanada mukammallash-tirib davom ettirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Erishilgan yutuqlar barobarida O.Jo'raqulov 1966-yil 1-noyabrda Qarshi davlat pedagogika instituti, tarix kafedrasiga ishga qabul qilindi [2].

Butun Sovet ittifoqi respublikalariga neft va gaz sanoatini o'rgangani orqali tanilgan olim ushbu muvaffaqiyatlar bilan cheklanib qolmay, 1977-yildan doktorlik dissertasiyasini yozishga kirishdi. Uzoq yillik izlanishlardan so'ng 1984-yilda "O'rta Osiyoda neft va gaz sanoatini rivojlanishi" mavzusidagi dissertasiyanı muvaffaqi-yatli himoya qildi va tarix fanlari doktori ilmiy darajasiga ega bo'ldi. Bunday yuksak ilmiy daraja olgan qashqadaryolik olimlar viloyatda bor-yo'g'i 2 nafar edi va O.Jo'raqulov uchinchini bo'lib fan doktori darajasiga sazovor bo'ldi. Bolaligida rus va hatto, o'zbek tilini bilmagan, jaydari qishloq bolasining katta yutuqlarga erishishi tafsinga sazovor edi.

Albatta, bu kunlarga yetishish uchun olim uzoq va mashaqqatlri yo'lni bosib o'tdi, inson o'zining mehnati va sabroqoti bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish mumkinligini yana bir bor isbotladi. O'sha yilda Qarshi davlat pedagogika instituti rektori M.Boltaevning O.Jo'raqulov haqida "Qashqadaryo haqiqati" gazetasida e'lon qilingan "Cho'l farzandi – fan doktori" nomli katta maqolasining e'lon qilinishi ham olimning yutuqlariga berilgan yuksak baho desak mubolog'a bo'lmaydi. 1985-yilda Obod Jo'raqulov professoriligi ilmiy unvoni berildi [3].

Neft va gaz sohasi tarixiga oid tadqiqotlarni tamomlagan olim endi e'tiborini Qarshi davlat pedagogika institutidagi faoliyatiga, yosh shogirdlar tayyorlashga va ijtimoiy tarixiy asarlar yozishga qaratdi. O'zbekiston Milliy universitetining tarix fanlari nomzodlik va doktorlik ilmiy kengashi a'zosi sifatida ko'plab yosh olimlarga rahbarlik qildi. Olimming "Chandir turkmanlari", "O'zbek mang'it urug'i" kitoblari, birinchi o'zbek generali hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan "General Jo'rabeq qadriyati" risolalari chop etildi.

Obod Jo'raqulov mehnat faoliyatning asosiy qismi Qarshi davlat universiteti (eski QDPI)da o'tdi. Bu davrda olim turli lavozimlarda mehnat qildi. Xususan, olim bir necha yillar universitetda kafedra mudiri, dekan vazifalarida faoliyat ko'rsatib, universitetning taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek talabalarga tarix ilmidan saboq berdi, yosh o'qituvchilar ilmiy ishlariga ustozlik va rahbarlik qilib, fakultet ilmiy salohiyatini yuksaltirishda jonbozlik ko'rsatdi. Hozirgi kunda ham olimming bir qator shogirdlari fan doktori, fan nomzodi darajalariga ega bo'lib, universitetda faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Afsuski, uzoq davom etgan hastalik 2010-yilda tarixchi olim Obod Jo'raqulovni hayotdan olib ketdi [4].

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgach, tarix fanining barcha sohalarida chuquq mulohaza bilan xolisona fikr yuritish imkonii tug'ildi. O'zbekiston tarixini haqqoniy tahlil etish uchun keng yo'l ochildi.

O'zbekistonda real dunyoqarash shakllanib, umuminsoniy qadriyatlari qaror topa boshladi. Sobiq Ittifoq davrda O'zbekiston tarixi, umuman ma'naviy qadriyatlarni tiklash maqsadida ilm-fan, uning rivoji, ma'naviy hayotining muhim sohalarini rivojlantrish islohotlari amalga oshirilmadi.

Muhokama. Sovet davrda tarixning eng kam o'rganilgan sahifalaridan biri – O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatidir. Bu mavzu istiqloqlarning dastlabki yillaridayoq siyosatchilar, iqtisodchilar hamda tarixchilarining diqqat markazidagi mavzularidan biriga aylandi. Tarixni haqqoniy va xolisona tarzda tahlil etish O'zbekiston tarixshunosligining bosh tamoyiliga aylandi.

Sovet davrda sanoat sohasi tarixi bo'yicha bir nechta dissertasiyasini ishlari ham bajarildi. Xususan, voha sanoat tarixi bunyodkori, Qashqadaryo tarixchilarining zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning 1967-yilda "O'zbekistonda gaz sanoatinig yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi" nomli dissertasiyasini sanoat tarixi yuzasida respublikadagi ilk ilmiy tadqiqot edi. O'zbekistonda sanoat sohasi tarixini tadqiq qilish borasida qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi [5].

Professor O.Jo'raqulov mustaqillik yillarda O'zbekistonda sovet davri sanoati tarixi mavzusi yuzasidan bir qancha risola va monografiyalari e'lon qildi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sanoat tarixini mukammal o'rgandi.

O.Jo'raqulov "Qashqadaryo sanoat tarixi" nomli risolalida Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 20-40-yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan ishlar yangi nazariy metodologiyaga asoslangan holda bayon etilib, asosiy e'tibor mayda kustar sanoati faoliyatini tahlil etishga qaratiladi. Chunki viloyatda 20-yillarda yagona sanoat korxonasi 79-

sonli paxta tozalash zavodi bo'lib, mazkur korxona faoliyatini risolada atroflicha tahlil etiladi.

Muallif zavod faoliyatida ta'rif berib shunday deydi: "1926-yilda ishchi-dehqon inspeksiyasi zavodning bir yillik faoliyatini tekshirganda korxona jamoasi orasida tartib-intizom bo'shligi, ishchi kadrlarning qo'nimsizligi, korxona rahbarlari o'tasida turli kelishmovchiliklar borligi aniqlandi. 1925-yilda korxona direktori uch marta o'zgargan. Zavodga paxta yetkazib berish uchun Yakkabog', G'uzor, Chiroqchi tumanlarida paxta qabul punkti ochilgan bo'lib, ularda ham qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan". Shuningdek, risolada 1927-yil Qashqadaryo okrugidagi kustarchilik artellarining to'liq ro'yxati, a'zolarining soni, ishlab chiqarish turlari haqida ham ma'lumotlar beriladi. Ushbu risolada mualliflar tomonidan Qashqadaryo okrugida amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatining mohiyati bir qadar asoslangan [6].

Professor O.Jo'raqulovning ilmiy merosini o'rganish va targ'ib etishda biz tomonimizdan quyidagi taklif va tavsiyalar beriladi:

birinchidan, 2024-yil professor tavallud topgan oyda «Voha sanoat tarixi buniyodkori, Qashqadaryo tarixchilarining

zabardast vakili professor Obod Jo'raqulovning ilmiy merosi» mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etish;

ikkinchidan, tarixchi olimning ilmiy merosini o'rganish uchun ijtimoiy tarmoqning imkoniyatlaridan foydalanib, telegram, feysbuk va boshqa messenjerlarda olimning ilmiy merosini targ'ib etish uchun rasmiy sahifalrini yaratish;

uchinchidan, professor Obod Jo'raqulovning uy muzeini mahalliy hokimlikning maxsus qarori asosida qayta tashkil etib, o'quvchi yoshlarni, talabalarni tashriflarini tashkil etish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yurtimiz olimlarining ilmiy merosini o'rganish, ularning ilmiy-ijodiy oshlarini kelajak avlodga goldirish milliy qadriyatlarimizdan biridir. Bu esa o'z navbatida milliy-ma'naviy merosni yanada boyishiga xizmat qiladi. Professor O.Jo'raqulov novator pedagog betakror, notiq va yosh avlodga mehribon ustoz edi. Olim yosh avlodni zamон talabi asosida tarbiyalash, ularning vatanimizga yetuk kadrlar bo'lib yetishiga alohida e'tibor qaratgan. Professor Obod Obod Jo'raqulov bilan qurilgan suhbatlar, ustoz tomonidan berilgan nasihatlar va uning hayotiy tajribalari hali ko'p yillar davomida shogirdlar va yosh tarixchilar uchun o'ziga xos iibrat maktab bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jo'raqulov O. Ko'rganlarim-anglaganlarim. – Toshkent , 2010
2. Sodiqov T., Rasulov T. Begmatova N. Universitet tarixidan lavhalar. – Qarshi, 2013.
3. Sodiqov T. Yodnomma. III qism. – Qarshi, 2012
4. Jo'raqulov O. Qarshi davlat universiteti. – Toshkent: "Fan"
5. Jo'rayev N. Tarix falsafasi. – Toshkent. "Ma'naviyat", 1999
6. Mamatqulov B. O'zbekiston gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va uning rivojlanish tarixi (Qashqadaryo viloyati misoldida) // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. - №12/1(3)-2023. ISSN: 2181-1342 (Online) <https://scienceproblems.uz>
7. Mamatqulov B. O'zbekistonda 1925-1954 –yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2023. – №12/5. – B. 61 – 65. <http://mamun.uz/uz/page/56>
8. Tursunov X. Tarix fanining jamiyat rivojidagi o'rni // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2023. – №8/3. – B. 22 – 24. <http://mamun.uz/uz/page/27>